

Tursunali Jumayev
Farhod Qiyomov

FORSTILLI

QARSHI -2017

QARSHI -2017

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI



O‘zbek filologiyasi va tarix fakultetlari talabalari uchun
o‘quv-uslubiy qo‘llanma

Qarshi – 2017

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari O'zbek filologiyasi va tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, undan fors tilini o'rganishga qiziquvchilar bimalol foydalanishlari mumkin.

**Mas'ul muharrir: filologiya fanlari doktori
N.Shodmonov**

**Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent .
O.Begimov
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O.Shukurov**

**Qarshi davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan
nashrga tavsiya etilgan.**

Kirish

Yuksak madaniyatli kishi o'zining chuqur bilimi, insoniy fazilatlarini, madanii darajasi, jozibali nutqi, chiroyli xati, tadbirkorligi bilan o'zgalarning oldida hurmat qozonishi, uni o'ziga rom qila olishi, unga katta ibrat berishi, etik-estetik jihatlardan ta'sir o'tkazishi, ularda ilm va ijodga havas, intilish uyg'ota olishi kerak. Aniqki, bu fazilatlar yosh mutaxassis shaxsida o'z-o'zidan va birdaniga shakllanib qolmaydi.

Ona tili va adabiyot va tarix singari gumanitar fanlaridan dars beruvchi haqiqiy mutaxassisni tarbiyalashda unga til tarixi bo'yicha davomli va izchil malumotlar berishning o'rni va ahamiyati muhim, negaki, til tarixi bevosita yozma tarixiy manbalar asosida o'rganiladi, natijada ilm tolibi bir tomondan, xalq tarixida qanday yozma manba va yodgorliklar borligini bilib olsa, ikkinchi tomondan, shu manbalarning mazmuni, yuzaga kelish sharoiti, o'rganilishi tarixi, yozuvi, til va uslubiy xususiyatlari bilan bevosita tanishib boradi. Bu tanishuv o'z navbatida o'quvchini xalq madaniy yodgorliklarini qadrlashga, tilimiz va adabiyotimizning taraqqiyot yo'llarini chuqurroq tasavur qilishga, yozuv hamda u bilan bog'liq san'atlar sirini anglab yetishga, tilimizning hozirgi me'yorlarini ilmiy jihatdan to'g'ri tushunish va uning muammolarini hal qilish uchun ularga nisbatan faol ijodiy munosabatda bo'lishga yo'l ochadi.

Arab (fors) tilida bitilgan adabiy merosimiz juda sermahsuldir. Eski va hozirgi o'zbek tilida arab (fors) tilidan o'zlashgan so'z va birikmalar g'oyat bisyor. Араб (форс) тили fanining rejaga kiritilishining asl mohiyati shundan iboratki, ming yillardan buyon turkiy tilli ulus madaniy yodgorliklarini arab alifbosida bitganligi, uni o'qib o'rganish uchun esa bu yozuv sirlarini bilish zaruratini keltirib chiqardi.

Ma'lumki, qadimgi davrlardan boshlab ilmiy asarlar arab tilida, badiiy asarlar esa fors-tojik tilida bitilib kelingan. XI asrdan boshlab esa bu say'-harakat turkiy tilga ham ko'chdi va uning nufuzi tobora oshib bordi. Shunday qilib XX asrgacha turkiy tilda va arab alifbosida bitilgan asarlarning soni juda ko'paydi. XX asrgacha bo'lgan davrda turkiy xalqlarga eski maktabda ham madrasalarda ham arab va fors tillarining qurilishi chuqur o'rgatilgan. Shuning uchun ziyolilarga bu tillarda bitilgan asarlarni tarjima qilib berish ehtiyoji yo'q edi. XX asr boshlaridan alifboning o'zgarishi o'z-o'zidan bu yozuvning ham arab va fors tillarning ham unutilishiga olib keldi. Natijada arab yozuvidagi yozma yodgorliklarni o'qish juda oz kishilargagina nasib eta boshladi. Vatanimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng gumanitar mutaxassislik beruvchi fakultet talabalariga "Arab(fors) tili", "Eski o'zbek yozuvi" fanlarini o'qitilish yo'lga qo'yildi va bu odimlar bir qancha muvaffaqiyatlarni ham qo'lga kiritdi.

Biroq yozuvni o'rganishga talab katta bo'lgani bilan uni ilmiy yo'sinda o'rgatadigan mutaxassislar hozircha juda kam. Bor bo'lganda ham, qat'iy bir maqsadga yo'naltirilgan ilmiy-ommabop qo'llanmaga ega bo'lmay turib, qiziquvchilarning bu sohadagi katta talablarini qondirib bo'lmaydi. Shu zaruriyatdan kelib chiqib, biz bo'lg'usi mutaxassislarga, til va adabiyot o'qituvchilari, ilm-madaniyat xodimlariga mo'ljallangan ushbu qo'llanmada fors tili va yozuvini o'rganishning eng oddiy uslubda o'rganishni maqsad qilib oldik. Buning uchun yozuvning eng asosiy quyidagi xususiyatlarini nazarda tutish lozim deb bildik:

- a) xat o'ngdan chapga qarab yoziladi;
- b) yozuvda bosh harf hamda kichik harflar ifodalanmaydi;
- v) unli tovushlarning ayrimlari, aniqrog'i qisqa unlilar yozuvda aks etmaydi;
- d) harflar bir-biri bilan bog'lanish-bog'lanmasliklari jihatidan ikki guruhga bo'linadi;
- g) so'zning o'zagida bir xil qo'sh undosh kelsa ulardan bittasigina yozuvda ifodalanadi;
- d) arab va fors so'zlarining qat'iy imlosi mavjud, ammo o'zbekcha so'zlarning yozilishida qat'iy qoidaga amal qilinmaydi;
- e) bu yozuv ishoraviy yozuv bo'lganligi sababli so'zning asl ma'nosi kontekstdan kelib chiqadi.

الفبای فارسی.

به طرز نوشت حرف‌ها توجه کنید و ازبر کنید!

نام حرفها	شکل علیحه	در اول کلمه	در بین کلمه	در آخر کلمه	آوازهای که حرف افاده کرده است
alif	ا	آ	ا	ا	a,u,o
be	ب	ب	ب	ب	b
se	پ	پ	پ	پ	p
te	ت	ت	ت	ت	t
se	ث	ث	ث	ث	s
jim	ج	ج	ج	ج	j
chim	چ	چ	چ	چ	ch
he	ح	ح	ح	ح	h
xe	خ	خ	خ	خ	x
dol	د	د	د	د	d
zol	ذ	ذ	ذ	ذ	z
re	ر	ر	ر	ر	r
ze	ز	ز	ز	ز	z
je	ژ	ژ	ژ	ژ	j
sin	س	س	س	س	s
shin	ش	ش	ش	ش	sh
sod	ص	ص	ص	ص	s
zod	ض	ض	ض	ض	z
to, itqi	ط	ط	ط	ط	t


z	ظ	ظ	ظ	ظ	zo, izg'i
a,e,u,'o	ع	ع	ع	ع	ayn
g'	غ	غ	غ	غ	g'ayn
f	ف	ف	ف	ف	fe
q	ق	ق	ق	ق	qof
k	ک	ک	ک	ک	kof
g	گ	گ	گ	گ	gof
l	ل	ل	ل	ل	lom
m	م	م	م	م	mim
n	ن	ن	ن	ن	nun
v,u,o'	و	و	و	و	voV
h, e	ه	ه	ه	ه	hoyi havva z
i,ey,yu, yo	ی	ی	ی	ی	yo

BIRINCHI DARS

الفباى فارسى Fors alifbosi.

alif harfi.

Arab yozuvi asosan fonografik yozuv bo'lib, o'zbek tilining fonetik tizimini ifodalashda aynan mos kelmaydi. Chunki o'zbek va arab tillari deyarli barcha lisoniy tasniflarga ko'ra bir-biriga yaqin emas. Arab alifbosi jami 28 harfdan iborat, fors tilida esa 32 ta harf bor.



Hamisha ham bir tildagi tovushlarni ifodalovchi harflar ikkinchi bir tilga tegishli bo'lgan ayrim tovushlarni ifodalay olmaydi. Tabiiyki, bunday hollarda ikkinchi tilga tegishli harflar qabul qilish zaruriyati tug'iladi, IX asrdan boshlab arab alifbosini o'z yozuvi sifatida qo'llab kelgan forsiy xalqlar arab alifbosiga o'z tillaridagi ayrim tovushlarni ifodalovchi ث (pe), چ (chim), ژ (je), گ (gof) harflarini arab alifbosiga qo'shdilar. Shuning uchun fors alifbosida harflar soni 32 taga yetgan.

(alif)-fors alifbosidagi eng birinchi harf. U muayyan vazifalarni bajaradi, Bir tomondan qo'shiluvchi harflar sirasiga kiradi, ya'ni o'zidan oldin kelgan harfga qo'shilib, o'zidan keyingisiga qo'shilmaydi. Shuning uchun ham yozuvda ikki ko'rinishda aks etadi:

alohida آ hamda ا bog'langan holda .

(alif) so'z boshida madd belgisi bilan kelganda ' cho'ziq o unisini ifodalaydi, So'z o'rtasi va oxirida kelganda, asosan, madd belgisi tushib qoladi, lekin so'zning matniy ma'nosiga qarab o tarzida o'qilaveradi:

آ- ob, باب- bobo;

(alif) so'z boshida kelib ba'zan i, e, u, o' unli tovushlarni ifodalashga xizmat qiladi:

(alif) yozma shaklda ifodalanganda uning ustki qismi ostki qismiga nisbatan yo'g'onroq yoziladi, Chunki, qalam yuqoridan pastga tomon yuritilganda qog'ozga nisbatan chuqurroq botadi: آ, آ, آ, آ, آ, آ, آ.

(alif) harfining mustaqil holatdagi shaklini yozganda qalam tepadan pastga tomon yuritilsa, ulangan holatdagi shaklini yozishda esa pastdan tepaga tomon yuritiladi. Satr chizig'ida yoziladi.

1-mashq. (alif) harfining alohida hamda bog'langan shakllarda ko'rinishini to'rt qatordan yozib chiqing.

2- mashq . آ (madd belgili alif) harfini to'rt qatordan yozing.

IKKINCHI DARS

ش shaklidagi harflar

Bu shakldagi harflar to'rtta. Ular shaklan o'xshash, lekin nuqtalarining o'rni va miqdori bilan farqlanib turadilar.

b,p,s,t

درس دوم

ب پ ت ث

1. ب (be) arab alifbostdagi ikkinchi

harf. O'zbek tilidagi jarangli, portlovchi, lab-lab, sof b undoshini ifodalaydi. Har ikki tomondan keladigan harflar bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham to'rt xil ko'rinishi (alohida - ب, so'z boshida - ب, so'z o'rtasida - ب, so'z oxirida - ب) mavjud.

ب (be) harfida bitta nuqta bo'ladi va u harfning ostiga qo'yiladi. ب (b) satr chizig'ida yoziladi uning nuqtasigina satr chizig'idan pastga tushadi. Masalan, با - (bo), بابا - bobo, آب - ob.

3-mashq. Tubandagi bo'g'in va so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing:

بابا، با، آب، آباب، بابا، باب

2. پ (pe) harfi forslar tomonidan kiritilgan harflarning birinchisi bo'lib, uning پ harfidan farqi uchta nuqtasi borligi va nuqtalari harfning ostiga qo'yilishidir. Ona tilitmizdagi jarangsiz, portlovchi, lab-lab, sof p undoshini ifodalaydi. پ (pe) harfi satr chizig'ida yozilib, uning nuqtalarigina satr chizig'idan pastga tushiriladi. Nuqtalarning joylashish o'rniga ham e'tibor qilish kerak. Oldiniga yonma-yon ikkita nuqta qo'yilib, so'ng ularning tagiga bitta nuqta qo'yiladi. Bu ham har ikkala tomondan qo'shilib yoziluvchi harflar tarkibiga kiradi.

To'rt xil yozilish shakliga : so'z boshida پ, so'z o'rtasida پ, so'z oxirida پ. Masalan:

پا = پ + ا - po (oëk) پ+پ = پیپ

4-mashq. Quyidagi so'z va bo'g'inlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

پاب، پیا، پاپ

3. ت (te) harfi o'zbek tilidagi tovushiga muvofiq keladi. Har ikkala tomonidagi harflarga qo'shib yoziladi. Satr chizig'ida yoziladi. To'rt xil ko'rinishga ega: (yakka holda ت, so'z boshida ت, so'z o'rtasida ت, so'z oxirida ت).

Nuqtalar soni ikkita, ular harfning ustiga quyiladi. Masalan: ت (te) harfining ikki nuqtasi qulyozma asarlarda ت kabi kichik chiziqli bilan ham ifodalab ketilaveradi:

Ba'zi manbalarda ت (te) harfi so'z o'rtasida kelsa, uning nuqtalari yonma-yon emas, ust quyib ketilishi ham kuzatiladi:-mabalki ust ت

ت (te) harfi so'z oxirida kelgan arabcha so'zlarda ت sal boshqacharoq ifodalanadi. Ya'ni ت hayi havvaz harfi yozilib, uning ustiga ت singari ikki nuqta qo'yiladi.

Masalan: حيرة hayrat.

5-mashq. ت (te) harfining turli shakllarini to'rt qatordan yozib chiqing.

6-mashq. ت (te), ب (be), پ (pe) harflarini o'zaro bog'langan holda yozib mashq qiling.

7-mashq. Mazkur bo'g'in va so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing:

تاتب، اتاب، اتب، باتب، تاپب، بتا، تاب، تا، آت، بپب

4. **ث** (ce) harfi arabcha so'zlarga xos. Tish oralig'i s tovushini ifodalaydi. Demak, eski o'zbek tiliga faqat arab tilidan o'tgan so'zlardagina ishlatiladi. Har ikkala tomondan keluvchi harflar bilan bog'lanadi. To'rt xil yozilish shakliga ega:

ث (yakka holda so'z boshida **ث** so'z o'rtasida **ث**, so'z oxirida **ث**. Satr chizig'ida yoziladi.

ث (se) harfida ham uchta nuqta bor, lekin **پ** (pe) harfiga zid o'laroq, nuqtalar harfning ustiga qo'yiladi. Se harfida oldin ikkita nuqta yonma-yon quyilib, uchinchi ularning ustiga qo'yiladi. Masalan:

ث (se) harfining uch nuqtasi quyidagi tarzda ham ifodalanadi: **ث** **ث**

8-mashq. **ث** (ce) harfining turli ko'rishlarini olti qatorqan yozib chiqing

9-mashq. Ushbu bo'g'in va so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing:

بتاب، تاتب، تاب، آتب، باب، تاپب، بتا، تاپ، تاتب، با، پا، تا، با، بد، بابا.

10-mashq. **ا** (alif) bilan **ث** (se) harflarini o'zaro bog'lagan holda uch qatordan yozib chiqing.

سلام عليكم - *salom aleyko 'm.* عليكم السلام - *aleyko 'm-o's-salom*
 بخاطر بسپاريد - *be'xattar bosparid* تاليدار - *talidar* خدا حافظ - *xo 'do hofez, to didor-xayr, ko 'rushguncha*
 بفرمايد - *befarmoid-marhamat.*
 بېشىنىڭ - *beneshinid-y'turinz.*
 تېكرار كنىد - *tekror ko 'nid-takrorlang.* بس است كافىست - *bas ast, kofist-yetarli*
 درست است - *do 'ro 'st ast - to 'g'ri*

UCHINCHI DARS

ج shaklidagi harflar

Bu turdagi harflar ham to'rtta bo'lib, shaklan o'xshash, ammo nuqtalarining o'rni va soni bilan farqlanadilar.

j, ch, h, x,			
درس سوم			
ج	چ	ح	خ

I. **ج** o'zbek tilidagi jarangli, portlovchi, tish-tish, qorishiq j tovushini ifoda etadi. Ikkala tomondan keluvchi harflarga qo'shib yoziladi. Shuning uchun ham yozuvda to'rt xil ko'rinishga ega: **ج** **چ** **ح** **خ** harfida bitta nuqta bo'lib, u nuqta harfning barcha ko'rinishlarida tagiga qo'yiladi.

Jim harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Uning nuqtasi esa harfning hamma ko'rinishlarida satr chizig'idan pastda bo'ladi. Misollar:

آجا، حجاب، جا، اجب، اجبا

11-mashq. ج arfinih ج (jim) bilan bog'langan holda bir necha qatordan yozib mashq qiling.

2. چ (chim) arab alifbosiga forslar tomonidan kiritilgan harflarning ikkinchisidir. O'zbek tilidagi jarangsiz, portlovchi, tish-tish, qorishiq ch tovushini ifoda etadi.. Har ikkala tomondan keladigan harflarga qo'shib yoziladi. To'rt xil yozilish holatiga ega: (yakka holda چ, so'z boshida چ, so'z o'rtasida چ, so'z oxirida چ). Chim harfida nuqtalar miqdori uchta bo'lib, ular harfning hamma ko'rinishlarida tagiga qo'yiladi.

Chim harfining mustaqil holatdagi hamda so'z oxiridagi ko'rinishlari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Harfning nuqtalari satr chizig'idan pastga qo'yiladi. Nuqtalarning joylashish tartibi xuddi پ (pe) harfiniki kabidir. Misollar:

چاپ = پ + ا + چ - chop

پاچ = چ + ا + پ - poch

آچا = ا + چ + آ - ocho

Eski o'zbek imlosida چ (chim) harfi juda kam qo'llanib. uning o'rniga, asosan, ج harfi ishlatilgan, lekin aksar hollarda mazmunga qarab o'qilavergan.

12-mashq. چ (chim) harfining to'rt xil yozilish shaklini olti qatordan ko'chirib yozing.

13-mashq. ب (be) harfini چ chim (bilan bog'lagan holda uch qatordan yozing.

14-mashq. O'zingiz mustaqil ravshda ج jim va چ chim harflari ishtirok etuvchi so'zlardan topib yozishga harakat qiling.

3. ح (hoi huttiy yoki he) harfi o'zbek tilidagi jarangsiz, sirg'aluvchi, sof. bo'g'iz tovushi h ga yaqin keladi. Bu harf faqat arab tilidan o'tgan so'zlarda uchraydi. Ikkala tomonidan keluvchi harflarga qo'shib yoziladi. To'rt xil ko'rinishi mavjud: ((yakka holda ح, so'z boshida ح, so'z o'rtasida ح, so'z oxirida ح). Uning shu tipdagi harflardan farqi nuqtasi yo'qligidadir. Hoi huttiy harfining so'z boshi va so'z o'rtasidagi ko'rinishlari satr chizig'ida yozilib, qolgan shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Misollar:

hobob — حباب = ح + ب + ا + ب

bahs — بحث = ب + ح + ث

hb'so — صبح = ص + ب + ح

Qo'lyozma kitoblarda hoi huttiy harfining tagiga quyidagi belgi (ء) qo'yib ketiladi.

Bu uning shu shakldagi harflardan farqlash zarurligini anglatadi. Mazkur belgi hoi huttiy harfining hamma ko'rinishlarida emas, balki so'z boshida hamda so'z o'rtasidagi shakllarida ko'proq uchrashi kuzatiladi. "Meyin", "yumshoq" ma'nolaridagi "helm"

so'zining yozilishiga diqqat qilaylik: حلم Ushbu harflarning ana shu belgisidan bexabar o'quvchi uni "chilim" deb o'qishi, bu esa so'z ma'nosiga putur yetkazishi mumkin,

15-mashq. ح (hoi huttiy) harfining so'zning turli o'rinlaridagi shakllarini olti qatordan yozib chiqing.

16-mashq. Quyidagi bo'g'in va so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing:

بخت، تخت، حباب، خحث، حجت، حجاب، حاجت، ختاب، جحت

4. خ (xe) harfi x tovushini ifodalaydi. Har ikkala tomondan keladigan harflarga qo'shib yoziladi. To'rt xil yozilish shakli (yakka holda **خ**, so'z boshida **خ**, so'z o'rtasida **خ**, so'z oxirida **خ**) ga ega. Unda nuqta bitta bo'lib, harfning barcha ko'rinishlarida ustiga qo'yiladi. Xe harfining yakka holda va so'z oxiridagi shakllariga satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Misollar:

baxt – **بخت** = **ب** + **خ** + **ت**

taxt – **تخت** = **ت** + **خ** + **ت**

17-mashq. Quyidagi bo'g'in va so'zlarni arab imlosida yozing;

cho, so, ho, jo, to, boj, toj, bajo, esbot, sobet, hoj, chap, choch, hojat, taxt, ho'jjat, ejobat.

18-mashq. ب (be), alif (a), ت (te) va ح (ho) harflarini bog'langan holda bir necha qatordan yozib chiqing.

درس شروع شده است - *dars sho'ru' sho'de ast - dars boshlanadi*

درس تعلم شده است - *dars tamom sho'de ast - dars tugadi*

بخاطر بسياريد - *benavisid - yozing*

بينيد دروست است؟ - *bebinid do'ro'st ast? - qarang, to'g'rimi*

(to'g'ri yozilganmi)?

دروست نيست - *do'ro'st nist - to'g'ri emas*

گوش كنيد - *gush ko'nid - eshiting, quloq soling*

TO'RTINCHI DARS

د (dol) va ذ (zol) harflari

د (dol) - fors alifbosidagi o'ninchi harf.

U o'zbek tilidagi jarangli, portlovchi,

til-tish, sof d tovushini ifoda etadi.

faqat bir tomondan qo'shib yoziluvchi

harflar tarkibiga kiradi, Shuning uchun ham u ikki ko'rinishga ega: (alohida **د**, ulanganda **ذ**).

O'ng tomondan kelgan harfga qo'shilib, chap tomondagisiga qo'shilmasdan yoziladi. Satr chizig'ida yoziduvchi harflardan. Masalan:

داد = **د** + **ا** + **د**

ادا = **ا** + **د** + **ا**

19-mashq. Tubandagi so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing:

دب، بد، تاج، اد، آد، باد، جدا، خدا، داد، ادا

20-mashq. O'zingiz mustaqil ravishda د (dol) harfi ishtirok etuvchi so'zlardan topib arab

alifbosida yozing.

ذ (zol) harfi ham yozuvda ifodalanishi jihatidan د (dol)ga o'xshash xususiyatlarga ega. ذ (zol) tish oralig'ida talaffuz qilinuvchi tovush, u faqat arab tilidan kirgan so'zlarda uchraydi. O'zbek tilidagi z tovushiga yaqin keladi. Bu harf ham o'zidan oldingi harfga qo'shilib, keyingisiga qo'shilmaydigan harflar sirasiga kiradi. Ikki xil ko'rinishga ega (yakka holda ذ , bog'langan shaklda yoziladi. Masalan:). Satr chizig'ida ذ

ذ + ا + ت = ذات - zot

ج + ا + ذ + ب = جاذب - jozeb

21-mashq. ذ (zol) harfining bog'langan hamda yakka holda kelgan shakllarini olti qatordan yozib chiqing.

22-mashq. Quyidagi bo'g'in va so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

جاذب، جذب، اذا، ذات، ذا، خر، خبر، درخت، دختر، جوراب،
چوب، چتر، پنج، چاپ، چپ، باختر، خاور، خارج

23-mashq. O'tilgan harflar ishtirokida so'z va bo'g'inlar yasang.

24-mashq. Tubandagi harflarni alfavitdagi o'rni bo'yicha joylashtirib, ular ishtirokida so'z va bo'g'inlarni hosil qiling.

ب، ا، ت، ث، ر، پ، ذ، د، ز، ح، خ، ج، ح

کتاب و دفترهایتان را روی میز بگذارید - *kitob va daftarhoyatonro rui miz bego'zoid -*
kitob va daftarlaringizni stol ustiga qo'yning.

بخطرسپارید درسرا حاضر کردیم - *darsro hozer kardid? - darsni tayyorladingizmi?*
bale, darsro hozer kardim - ha, darsni tayyorladik

امروز کشیک کیست؟ - *эмруз кешик кист? - бугун ким навбатчи?*

امروز من کشیک هستم - *эмруз ман кешик ҳастам - бугун мен навбатчиман.*

BESHINCHI DARS

shaklidagi harflar

Bu xildagi harflar uchta. Ular ham shaklan o'xs'ash, biroq nuqtalarning o'rni va miqdori bilan farqlanadilar.

r, z, j.
درس پنجم
ر ز ژ

1. (pe) harfi o'zbek tilidagi r tovushini ifodalaydi. O'zidan oldingi harfga qo'sh'lib, keyingisiga qo'sh'lmaydi. Ikki xil yozilish

shakliga ega (yakka holda ر . bog'la'gan holda ر). Shu tipdagi harflardan farqi shuki, nuqtasi yo'q. Harfning ma'lum qismi satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Misollar:

ر + ب + ا + ت = ربات

$$\begin{aligned} \text{ب} + \text{ر} + \text{ب} + \text{ا} + \text{د} &= \text{برباد} \\ \text{ب} + \text{ر} + \text{ا} + \text{ب} + \text{ر} &= \text{برابر} \end{aligned}$$

Yozma shaklda ر(re) harfi so'zning o'rtasi va oxirida kelsa, o'zidan oldingi harfdan pastga tushirib yoziladi, bog'lanish chizig'i sezilmay ketadi:



25-mashq. ر(re) harfining yakka hamda bog'langan shakllaridan olti qatordan yozib chiqing.

26-mashq. Mazkur so'zlarni to'g'ri o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

خرجت، حرارت، دربدر، در، باز، دار، بر، جر، راحت،
جراحت، خراج، درخت، پدر، برادر

2. ز(ze) harfi o'zbek tilidagi jarangli, sirg'aluvchi, tish-tish, sof z tovushini

ifodalaydi. ز(ze) o'ziga o'xshash harflardan bitta nuqtasi borligi bilan farqlanadi.

O'zidan oldingi harfga qo'sh'lib keyingisiga qo'shilmaydi. Ikki xil ko'rinishga (yakka

holda ز, bog'langan holda ز) ega. Satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Misollar:

ز + ر + د + ا + ب = زرداب

ج + ز + ا = جزا

ز + خ + ا + ب = زخاب

3. ژ(je) harfi arab alifbosiga forslar tomonidan kiritilgan harflarning uchinchisidir. O'ziga o'xshash harflardan ustiga qo'yilgan uchta nuqtasi bilan farq qiladi va jarangli, sirg'aluvchi. tish-tish j tovushini ifoda etadi va fors-tojik hamda baynalmilal so'zlardagi j tovushini ifodalaydi. Bu harf ham o'zidan oldingi harfga qo'shilib, keyingi harfga qo'shilmaydi. Ikki xil yozilish shakliga ega: alohida ژ, ulangan holda . ژدر - اژدر
ajdar so'zi dagi j tovushiga mos keladi. Satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Masalan:

ajdar - اژدر

27-mashq. ر(ze) va ژ(je) harflarining turlicha yozilish shakllarini olti qatordan yozib chiqing.

28-mashq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri o'qing va ko'ch'rib yozing:

زخ، آزار، اژدر، بازار، زرداب، زردار، زر، زار، راز، از،
زخاب

آن تبر است. تراب تار دارد. سبد در دست تراب است.

تابان تب دارد. استاد شش برادر دارد. □

29-mashq. O'tilgan harflar ishtirokida so'zlar tuzing va arab imlosi asosida yozing.

30-mashq. د (dol) va ز (zol) harflarini ا (alif), ت (te), چ (chim), ر (re), ژ (je) harflari bilan o'zaro bog'langan holda so'zlar yasang.

31-mashq. Mazkur harflardan foydalangan holda qanday so'zlar yasay olasiz?

پنجره را بزرگ کنید - *panjarero boz ko'nid - derazani oching*
 در را ببندید - *darro bebandid - eshikni yoping*
 حال شما چطور است؟ - *hole sho'mo cheto'ur ast? - ahvolingiz qanday?*
 حال من خوب است - *hole man xub ast - a'xvolim xush.*
 متشکرم - *mo'tashakkeram - rahmat, tashakkur*

OLTINCHI DARS

س (sin) va ش (shin) harflari

س (sin) harfi o'zbek tilidagi s tovushini ifodalaydi. Har ikkala tomonidan keluvchi harflarga qo'shib yoziladi, To'rt xil yozilish shakli mavjud: (yakka holda س, so'z boshida س, so'z o'rtasida س, so'z oxirida س). Sin harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi.

s, sh.
درس ششم
س ش

Misollar:

پست = پ + س + ت - past

درس = د + ر + س - dars

Sin harfi qo'lyozmalarda ikki holatda uchraydi: tishli س, hamda tishsiz س, ya'ni chiziqli shaklida

س sin harfining qo'lyozma kitoblarda ifodalanishi yana bir necha xususiyatga ega.

a) س sin ba'zan, so'zning qaysi o'rinlarida kelishidan qat'iy nazar, ostki qismiga uch nuqta qo'yilgan holda yoziladi: آسمان - osmon.

b) س (sin) harfi so'z oxirida (ko'pincha bir tomondan qo'shib yoziluvchi harflardan keyin kelganda) harf ustiga mindirib yoziladi.

biriga bog'lanish-m xattotlar so'zda harflarning birriqiyos. Ay - تپاس chizig'ini atayin cho'ziq yozadalar. Bunda go'yo sin harfining so'z o'rtasidagi shakli hosil bo'lganga o'xshaydi:

. Uni sin debjam' - جمع jon,eh - عجم o'qimaslik kerak. Xattotlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qog'ozdagi bo'shliqni to'ldirish va yozuvning chiroyli chiqishini nazarda tutib shunday yo'l tutadilar.

32-mashq. س (sin) harfning so'zning turli o'rinlaridagi shakllarini olti qatordan yozib chiqing.

33-mashq. Tubandagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib oling:

جابر سرباز اسباب سر اسرار رخست اساس دست خاس خس
بست بسات سردار پست ساز جسارت جبر

34-mashq. Quyidagi so'zlarni arab yozuvida ifodalang:
dor, chorpo, jar, boadab, choder, obod, rohat, sabz.

ش (shin) harfi o'zbek tilidagi sh tovushiga to'g'ri keladi. Har ikkala tomonidan keluvchi harflarga bog'lanadi. To'rt xil yozilish shakliga (yakka holda ش, so'z boshida - ش, so'z o'rtasida ش, so'z oxirida ش) ega. Misollar:

شهر = shahr - ش + ه + ر

بشر = bashar - ب + ش + ر

Sin harfiga xos xususiyatlar ko'p jihatdan shinga ham tegishlidir. Shin

qo'lyozma asarlarda ko'pincha tishsiz yoziladi: شر شر شر

Shin harfning sindan farqi shuki, ustida uchta nuqtasi bo'ladi. Bu uchta nuqta qo'lyozma asarlarda quyidagicha ifodalanadi:

sharbat - شرابت harob, شراب - s

35-mashq. Quyidagi ش (shin) harfining so'zning turli o'rinlarida qatnashgan ko'rinishi dagi misollarni o'qing va daftaringizga ko'chirib oling:

شجر چاش شربت شتاب شاد شرر تشبث آتش آش آشپز

36-mashq. Sin va shin harflarini bir tomondan qo'shiluvchi harflar bilan o'zaro bog'langan holda yozing va qanday so'z va bo'g'inlar hosil bo'lishini izohlang.

شما دانشجو هستید؟ - sho'mo doneshju hastid? - siz talabamisiz?

بله من دانشجو هستم - bale man doneshju hastam - ha, men talabaman.

من دانشجوی سال دوم دانش بخاطر بسیاری کدهی فیلولوژی هستم - man doneshjui sole do'vvo'me luji o'zbaki hastam - men o'zbek filologiyasi fakultetining ikkinchi kurs tafa basiman.

YETTINCI DARS

ص (sod) va ض (zod) harflari

ص (sod) harfi o'zbek tilidagi s tovushiga yaqin keladi. Har ikkala tomondagi harflarga qo'shib yoziladi. To'rt xil ko'rinishga ega: (yakka holda

ص, so'z boshida ص, so'z o'rtasida ص

so'z oxirida ص). ص (sod) - til orqa undoshi, u faqat arab tili orqali kirib kelgan so'zlarda uchraydi.

Sod harfining so'z boshidagi va so'z o'rtasidagi shakllarigina satr chizig'ida yoziladi. Qolgan ko'rinishlari satr chizig'idan pastga tushadi.

Misollar:

ص -so'bh - ص + ب + ح = صبح

S, Z.
درس هفتم
ص ض

shaxs - شد + ذ + ص = شخص

37-mashq. ص (sod) harfining so'zning turli o'rinlaridagi shakllarini olti qatordan yozib chiqing.

38-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing:

صبح شخص صادر صبر صابر صبا صباحت صبح صد صدا
صرا صحبت

39-mashq. Sod harfi ishtirokidagi so'zlardan bir nechtasini daftaringizga yozing.

ض(zod) harfi z tovushini ifodalab keladi. Ustidagi nuqtasi bilan sod harfidan farq qiladi. Bu ham til orqa tovushlaridan, arab tilidan qabul qilingan so'zlardagina qo'llanadi. Har ikkala tomondagi harflarga qo'shilib yoziladi. To'rt xil yozilish shakliga ega (yakka holda ض, so'z boshida ض, so'z o'rtasida ض, so'z oxirida ض). ض(zod) harfining yakka holdagi hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Misollar:

حاضر، حضرت، خضر، ضربدار، ضرب، ضرر، راض،

40-mashq. Lug'atdan foydalangan holda sod va zod harflari ishtirok etuvchi so'zlardan o'ntasini daftaringizga ko'chirib oling. Ularning yozilishini yodda tuting.

همه بنویسید - hame benavisid - hamma yozsin
اجازه هست؟ بخاطر بپسارید ejoze hast? - mumkinmi(kirishga)
فهمیدید؟ fahmidid? - tushindingizmi
فهمیدم - fahmidam - men tushindim

SAKKKIZINCHI DARS

ط (to voki itqi) va ظ (zo yoki izg'i) harflari

ط (to yoki itqi) o'zbek tilidagi t harfiga yaqin keladi. O'ng va chap tomondan kelgan harflarga bog'lanadi.

To'rt xil yozilish shakliga ega: (yakka holda ط,

so'z boshida ط, so'z o'rtasida ط, so'z oxirida ط). Bu tovush ham arab tilidan kirib kelgan so'zlar uchun xosdir. Satr chizig'ida yoziluvchi harflardan.

Misollar:

ط + ب + ل + ب + ت = طبابت, tabobat,

ط + خ = خط, xat,

ط + ر + ش = شرط, snart

ظ (zo voki izg'i) o'zbek tilidagi z tovushiga yaqin keladi. Har ikkala tomondan keluvchi harflarga qo'shilib yoziladi. To'rt xil yozilish shakliga (yakka holda ظ, so'z boshida ظ, so'z o'rtasida ظ) ega. Bu ظ, so'z oxirida ظ ham til orqa undoshi, u arab tilidan kirgan so'zlardagina ishlatiladi. Bu harf ham satr chizig'ida yoziladi. Misollar:

t, z
درس هشتم
ظ ط

ظ - zoher = ز + ه + ل + ظ

نظم - nazm = ن + ظ + م

ظ (to) dan farqli o'laroq zo harfining ustiga bir nuqta qo'yiladi. ظ (to) va zo harflarining tik tushgan chizig'i qo'lyozma manbalarda harfning asosiy qismi bilan bog'lanmasdan yozib ketiladi:

41-mashq. ظ (to) va zo harflarining so'zning turli o'rinlaridagi shakllariga uch qatordanyozib chiqing.

42-mashq. Tubandagi so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing.

43-mashq. Lug'atdan ظ (to) va zo harflari ishtirok etuvchi so'zlarni ko'chirib oling. Imlosini yodda saqlang.

بفرماید پای تختہ - befarmoid poye taxte - marhamat, doskaga chiqing
پاک کنید تختہ را - maxtero pok ko 'nid - doskani tozalang
بخاطر بسپارید - bebaxshid - uzr, kechirasiz
خستہ شدید؟ - xaste sho 'did? - charchadingizmi?
بلہ خستہ شدم - bale, xaste sho 'dam - ha, men charchadim
تخیر خستہ نشدم - naxeyr, xaste nasho 'dam - yo 'q, men charchamadim

TO'QQIZINCHI DARS

ع (ayn) va غ (g'ayn) harflari

ع (ayn) yozuvdagi vazifalari jihatidan boshqa harflardan ajralib turadi. To'rt xil

ko'rinishga (yakka holda ع, so'z boshida ع, so'z o'rtasida ع, so'z

oxiridagi ع) oxiridagi

shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Ayn ham arab tili uchun xos bo'lgan portlovchi bo'g'iz tovushidir. Tilimizning leksik tarkibidagi arab tili orqali kirgan so'zlardagina uchraydi. a', e', u e' tovush birikmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Quyidagi xususiyatlarga ega:

a) ayn harfi so'z boshida kelganda tilimizga o'zlashgan so'zlarning ayrimlari a tovushi sifatida talaffuz qilinadi va yoziladi:

عقل = ع + ق + ل - aql

عمل = ع + م + ل - amal

b) arab tilidan o'zlashgan ba'zi bir so'zlarda esa e unli tovushini anglatib keladi:

عمارت = ع + م + ا + ر + ت - emorat.

v) arab tili orqali kirib kelgan ayrim so'zlarda o' tovushlarini ifodalaydi:

عمر = ع + م + ر - o'mr

علما = ع + ل + م + ا - o'lamo

g) ba'zi so'zlarda o' tovushini ifodalaydi. buning uchun yozuvda aynga alif harfi qo'shib yozilishi shart:

a, e, o, o', g'	
درس نهم	
ع	غ

ع - ا + ل + ق + ل = عاقل

Ayn harfi so'z boshida alifdan keyin kelganda, ko'pincha hozirgi yozuvimizda tutuq belgisi bilan ifodalanadi

ا + ع + ت + ب + ل + ر = اعتبار

ا - ا + ل + ع = اعلا

Ba'zi so'zlarda ayn harfi so'z boshida o'z xususiyatlarini yo'qotgan:

ا - ع + س + ل = عسى

ا - ع + ي + د = عيد

Mazkur so'zlar asrlar davomida o'z talaffuz xususiyatini yuqotib, o'zbek tilining talaffuz qoidalariga moslashgan. Ayn so'z ichida yopiq bo'g'indan keyin kelsa, keyingi bo'g'inni oldingisidan ajratib turadi. Bu xususiyat hozirgi yozuvimizda tutuq belgisi orqali beriladi:

ا - ب + د + ع + ت = بدعت

ا - ص + د + ع + ي = صنعى

Hozirgi o'zbek tilida arab tili orqali kirib kelgan ayrim so'zlarda ayn talaffuz ham qilinmaydi, yozilmaydi ham. Lekin fors yozuvida ع (ayn) harfi yozilishi shart:

ا - ج + م + ع = جمع, sham' - ش + م + ع = شمع

44-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing, daftaringizga ko'chirib oling va yozilishini yodda saqlang.

اعلان استعداد اختراع معارف عقل عسل عطار عسب لعل فعل
عمارت علم معلم عادت طعب سعادت شعرا شاعر عبرت ساعت
عارض عاجز عالم

45-mashq. Tubandagi so'zlarni forsha imlosi asosida yozib chiqing:

sheor, or, arz, g'o'bor, bog', tig', g'azot, g'arb, g'or, sho'er, bag'er, g'o'rbat, atr, shejoat, she'r.

غ (g'avn) harfi o'zbek tilidagi jarangli, til orqa, sirg'aluvchi, sof g' undoshini ifodalash uchun qo'llanadi. غ (g'ayn) harfining ustida bitta nuqta bo'ladi. To'rt xil yozilish shakliga ega (yakka holda غ, so'z boshida غ, so'z o'rtasida غ, so'z oxirida غ).

غ (g'ayn) harfining so'z boshidagi va so'z o'rtasidagi shakllari satr chizig'ida yoziladi, alohida va so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Misollar:

ا - غ + ب + ل + ر = غبار

ا - ب + غ + د + ا + د = بغداد

ا - د + ر + ي + غ = دريغ

44-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

چاغر، داغ، زاغ، غلام، غبار، غرب، درغ، فغان، غدار،
ساغر، غرق، غرات

اسم شما چیست؟ - *esma sho'mo chist? - ismingiz kim?*
 شما چیست؟ - *nome xonevodegiye sho'mo chist? -*
familiyangiz nima? اسم من خسرو است - esme man xo'srav ast -
mening ismim Xusrav. نام خانوادگی من رحمانوف است - nome xonevodegiye man
rahmonuf ast - familiyam Rahmonovdir.

O'NINCHI DARS

ف (fe) va ق (qof) harflari

ف (fe) harfi tilimizdagi f tovushiga muvofiq keladi. Fe harfining ustida bitta nuqtasi bo'ladi. O'ng va chap tomondan keladigan harflar bilan

bog'lanadi. To'rt xil yozilish shakliga (yakka holda ف, so'z boshida ف, so'z o'rtasida ف, so'z oxirida ف) ega. ف (fe) satr chizig'ida yoziluvchi harflardan hisoblanadi.

Ba'zi xattotlar aksariyat hollarda ف (fe) harfining so'z o'rtasidagi ف (g'ayn) harfining so'z orasidagi ف shakiiga o'xshatib yozishadi. Ularning o'zaro farqlarini kontekstdan kelib chiqqan holda anglash mumkin.

Eski o'zbek yozuvi yodgoiiklarida p tovushi ishtirok qiluvchi ayrim so'zlarda ko'pincha talaffuziga qarab ف (fe) harfi ifoda etilgan.

46-mashq. ف (fe) harfining yozilish shakllarini olti qatordan yozib chiqing.

47-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing, ko'chirib yozing:

دفتر آفتاب افتخار طرف بشارت شباب اش شفا جفت فاتح
ضفر صفر فرصت تفت شرافت اتراف فتح فاتح شفاعش

48-mashq. ف fe harfining so'zning boshidagi shakliga misollar topib arab yozuvida yozib chiqing.

49-mashq. ف fe harfining ikki xil ko'rinishga ega bo'lgan harflar bilan o'zaro bog'liq holda yozib chiqing.

ق (qof) harfi o'zbek tilidagi q tovushini ifodalaydi. ق qof ustiga quyiluvchi ikkita nuqtasi va nisbatan chuqurroq yarim doira qilib yozilishi bilan ف fe dan farqlanadi. O'zidan oldin va keyin kelgan harflarga qo'shilib yoziladi. To'rt xil yozilish shakliga (yakka holda ق, so'z boshida ق, so'z o'rtasida ق, so'z oxirida ق) ega. Qofning yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Misollar:

قفاس - ق + ف + س = قفاس

نقاش - ن + ق + ش = نقاش

شفاق - ش + ف + ق = شفاق

50-mashq. Ushbu so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

تقاضا شفقت صدق شرف شرق قفس صادق صداقت دقت فقرا فرقت قدر

51-mashq. Har biringiz mustaqil holda **ف** (fe) va **ق** (qof) harflari ishtirok etuvchi so'zlardan topib, fors alifbosi asosida yozing.

52-mashq. Qof harfining so'z oxiridagi shakliga beshta misol topib yozing.

امروز چندم ماه است؟ **بخطریسپارید** *emruz chando 'me moh ast? bugun oyning nechanchi kuni?*
مارس است *emruz bist-u yeko 'me mohe mors ast- ma birinchi martdir.*

امروز چه روزی است؟ *emruz che ruz-i ast? bugun haftaning qaysi kuni?* امروز چهارشنبه است *emruz chahorshanbe ast - bugun chorshanba.*
حالا ساعت چهار و پانزده *holo so 'at chand ast? - hozir soat necha?* حالا ساعت چند است؟
حالا ساعت چهار و پانزده دقیقه کم است *holo so 'at chahor-u ponzdah daqiqa kam ast-hozir soat o 'nbesh daqiqa kam to 'rt.*

O'N BIRINCHI DARS

ک (kof) va **گ** (gof) harflari

ک (kof) o'zbek tilidagi k harfini ifodalaydi. Har ikkala tomonidan keluvchi harflarga bog'lanadi. Shuning uchun ham to'rt xil

	k, g.
درس	یازدهم
ک	گ

(**ک** so'z oxirida, **گ** so'z o'rtasida, **ک** so'z boshida, **گ** so'z oxirida) yozilish shakliga (yakka holda **ک**, so'z boshida **گ**, so'z o'rtasida **ک**, so'z oxirida **ک**) yoziladi. Misollar:

ک + **ب** + **ل** + **ب** = **کباب** - kabob

ک + **ت** + **ک** = **کاتک** - katak

ک (kof) so'z oxirida kelganda quyidagi shakllarda yoziladi: **ک** va ba'zi manbadarda kof harfi so'z boshida kelganda quyidagicha ifodalanadi: **ک** **ک**

kitoblarda kofning alif bilan bog'langan holati mana bunday yoziladi: **ک** Eski o'zbek yozuvida bitilgan yodgorliklarning ayrimlarida kof o'zbek tilidagi **گ** tovushini ham ifoda etgan.

53-mashq. **ک** (kof) harfining so'zning turli o'rinlardagi shakllarini olti qatordan yozib chiqing.

54-mashq. Ushbu so'zlarni o'qing va bir necha qatordan ko'chirib yozing:

مشق شفا شمس شاکر شفقت شکر کرامت کمر مشتاق مشقت
مشق آتش ترک کاسب کسب اشک شکل امکان مکان کملک مکر
مکار تکرار

55-mashq. **ک** (kof harfining so'z o'rtasidagi shakliga beshta misol topib arab alifbosi asosida yozing.

56-mashq. **ک** (kof) harfining alif bilan qulyozma asarlarga xos bog'lanish holatini uch

qatordan ko'chirib yozing.

گ (gof) harfi arab alifbosiga forslar tomonidan qo'shilgan harflarning to'rtinchisidir. U o'zbek tilidagi g tovushini anglatadi. O'ng va chap tomonidan keluvchi harflarga qo'shib yoziladi. To'rt xil yozilish shakli (yakka holda گ , so'z boshida گ , so z o'rtasida گ , so'z oxirida گ) qo'llanabi. Satr chizig'ida yoziladi.

گ (gof) harfining ک (kof)dan ko'rinishi jihatidan farqi ustida گ uch nuqtasi borligidir.

گ (gof) harfi aslida quyidagicha shaklda bo'lgan: گ Keyinchalik o'sha uch nuqta bir chiziq bilan ifodalana boshlagan: گ

Misollar:

ر - ر + ن + گ - رنگ

م - م + ر + گ + ر - مرگ

Odatda, eski yozuvida گ (gof) harfi yozilmasdan, uning o'rniga ک (kof) harfi qo'llanavergan. گ (gof) harfining ا (alif) bilan o'zaro birikuvi qo'lyozmalarda tubandagicha bitiladi: گ - go (yoki -ga) ک (kof) va گ (gof) harflarining ل (lom) harfi bilan bog'lanishi xususida ham shuni aytish mumkin:

ک - ko'll, گ - go'l.

57-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

ذاکر ذکر کباب کاتب کتابت کتاب کار اگر شاگرد گردش
گرفتار گپ تکبر تکرار کاسب کسب گرد گزر برگ گشت اگر

58-mashq. گ (gof) harfining so'zning turli o'rinlardagi shakllarini olti qatordan yozib chiqing.

59-mashq. O'zingiz mustaqil ravishda ک kof va گ gof harflari ishtirok etuvchi so'zlardan topib arab alifbosi asosida yozing.

60-mashq. Oxiri گ gof harfi bilan tugaydigan so'zlardan topib vozib chiqing.

61-mashq. گ gof harfining alif bilan bog'lanish holatini ikki qatordan yozib chiqing.

62-mashq. ک kof va گ gof harflarining ل lom bilan qo'lyozmalarga xos usulda bog'lanish shaklini uch qatordan ko'chirib yozing.

ازبکستان میهن ماست - o'zbekiston mihan-e most-O'zbekiston bizning vatanimiz.
ازبکستان است - shahre toshkent poytaxte
jo'mhuri-ye بخاطر یسپارید o'zbekiston ast - Toshkent-O'zbekiston Respublikasini
shahre tehran poytaxte jo'mhuri-ye eslomi-ye iran ast - Tehran-Eron Islom Respublikasining
poytaxti. در ایران روزی جمعه روز تعطیل است. - dar iron ruzi jo'm'e ruze ta'til ast-Eronda
dam olish kuni juma kunidir.

O'N IKKINCHI DARS

ل (lom) va م (mim) harflari

ل (lom) - o'zbek tilidagi l harfiga mos keladi. Har ikkala tomondan keluvchi harflarga qo'shib yoziladi,

l, m.	
درس دوازدهم	
ل	م

To'rt xil ko'rinishi (yakka holda ل, so'z boshida ل, so'z o'rtasida ل, so'z oxirida ل. Ushbu harfning yakka holati hamda so'z oxiridagi ko'rinishi satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Misollar:

ل - latofat = ل + ط + ل + ف + ت = لطافت

ل - xalal = ل + ل + خ = خلل

ل - shakl = ل + ش + ك = شكل

Bosma xat turida ل (lom) harfi ا (alif) bilan bog'langan holatda yozma ل (lom) nusxadagi ko'rinishlari birmuncha farqlanadi. Unda ل lom hamda ا alif harflarining bog'lanishi bilan لا shakl hosil bo'ladi: لا (lo).

63-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

خلاص صالح لقب لب دال دل دالر دلبر غفلت خالص اخلاص
دلگر دلال تال خلق خلل

64-mashq. ل (lom) harfining so'zning turli o'rinlaridagi shakllarini olti qatordan ko'chirib yozing.

65-mashq. گفتگو matnini o'qing tarjima qiling :

گفتگو

اسم شما چیست؟

اسم من منوچهر است.

شما چند سال دارید؟

من بیست سال دارم.

شما دانشجو هستید؟

بله من دانشجو هستم.

شما در کجا زندگی می کنید؟

من در شهر قرشی زندگی می کنم.

پدر و مادر شما چکاره اند؟

پدرم مهندس است. مادرم آموزگار است و در یکی از دبیرستانهای

شهر قرشی تدریس می کند.

66-mashq. ل lom harfi o'rtada kelgan so'zlardan toping va fors aiifbosi asosida yozing.

م (mim) - o'zbek tilidagi m harfini ifodalaydi. O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shiladi. Shu sababli to'rt xil yozilish shakli (yakka holda م, so'z boshida م, so'z o'rtasida م, so'z oxirida م) ga ega. Mimning alohida hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi.

Misollar:

ملک = م + ل + ک - malak

صنم = ص + ن + م - sanam,

Mim harfining yozma va bosma shakllarida unchalik farq yo'q. Shuni aytish kerakki, bosmada م (mim) ning dumaloq qismi siyoh bilan chaplanmasdan mitti doiracha shakli yoziladi. Yozma nusxalarda esa mimning dumaloq qismi siyoh bilan chaplanib, katta nuqta hosil qilingan holda ifodalanadi م. Shuningdek, qo'lyozmalarda mim harfi so'z oxirida bir tomondan qushiluvchi harflar bilan kelganda ko'pincha o'sha harflarning ustiga mingashtirib yoziladi: پیغام, payg'om.

67-mashq. م (mim) harfining turli shakllarini olti qatordan yozing.

68-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

قامت قمت مست مدت مدد مراد شمال ملك كلام تمام قلم حمت
معارف معما مملکت جمال مشاق مشق ملامت

69-mashq. Quyidagi so'zlarni arab alifbosi asosida yozing:

malol, mahkam, rahm, mesol, amal, kamol, meros, tomosha, ehtemol, ta'lim, mo'nosabat, malham, komel, jamol, umr, alaf.

حيوانات خانگی یا اهلی

حيوانات اهلی چون گاو گوسفند بز اسب شتر در خانه ها زندگی می کنند. اسب حيوان قشنگی است. گردن اسب موهای بلند دارد که آنرا یال می گویند. پاهای اسب سم دارد. اسب شیهه می کشد. اسب سواری گاری و درشکه میکشد بار هم می برد. هر کدام از این حيوانات برای انسان شیر گوشت پشم و پست میدهند.

مرغهای خانگی برای انسان خدمت می کنند. انسان از گوشت مرغ و مرغابی و بوقلمون استفاده میکند و با تخم و گوشت آنها غذا میپزد. مرغابی در خشکی راه میرود در آب شنا و در هوا پرواز می کند.



گاری - arava
درشکه - foytun
بو قلمون - induk

bist-u yeko'me mohe mors jeshne
no'uruz ast -yigirma birinchi mart Navro'z bayramidir.
hashto'me mohe mors ruze beyn-o'l-melali zanon
ast - Sakkizinchi mart -Xalqaro xotin qizlar kuni.
avvale mohe septomber jeshne
esteqlole jo'mhuri-ye o'zbakeston ast-birinchi sentabr-O'zbekiston Respublikasining
Mustaqillik kuni.
avvale mohe o'kto'ber ruze doneshyoron va
donesh omuzon ast - birinchi oktabr O'qituvchilar va murabbiylar kuni.
hashto'me desomber ruze pazireshe
qonune asosiye o'zbakeston ast - sakkizinchi dekabr O'zbekiston Konstitutsiyasi kuni.

O'N UCHINCHI DARS

ن (nun) va و (vov) harflari

v.o',u,o'u,n.

درس سیزدهم

و ن

ن (nun) o'zbek tilidagi n tovushini
ifodalaydi. Har ikkala tomondan
keluvchi harflarga bog'lanadi. To'rt
xil yozilish shakliga ega: (yakka

holda ن so'z boshida ن, so'z o'rtasida ن, so'z oxirida ن). ن (nun) harfining so'z boshi va
o'rtasidagi shakli ب (be), پ (pe), ت (te), ث (se) harflarining yozilish shakllariga o'xshab
ketadi. Ulardan faqat ustiga qo'yiluvchi bitta nuqtasi bilan farqlanadi. ب (be) harfida nuqta ostki
qismiga qo'yilsa, ن (nun)da ustiga qo'yiladi. Ushbu harfning mustaqil holatdagi va so'z oxiridagi
ko'rinishlari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi: ن. Xattotlar ن (nun) harfini so'z
oxiridagi hamda alohida yoziladigan kurinishlarini turli xil shakllarda bitganlar. So'z oxirida
kelganda yoy shaklida yozilib, ustiga bir nuqta qo'yishgan: ن don. - ن

Ba'zi hollarda ن (nun)ning nuqtasi harfning asosiy qismiga qo'shib yoziladi: -
hasan حسن

70-mashq. ن (nun) harfining so'zning turli o'riniaridagi shakillarini olti qatordan yozing.

71-mashq. ن (nun) harfining qo'lyozma asarlarga xos shakllarini bir necha qatordan
yozib chiqing.

و (vov) o'zidan oldingi harfga qo'shilib, keyingisiga qo'shilmaydigan harflarning
oxirgisidir. U ikki xil ko'rinishga ega: (alohida و va bog'langanda و). Satr chizig'idan pastga
tushirib yoziladi. Bir necha tovushni ifodalaydi:

a) so'z boshida yakka o'zi kelganida v undoshini yfodalaydi:

و - vaqt = و + ق + ت

b)so'z o'rtasi va oxirida kelganda ham asosan v tovushini anglatadi: Misollar:

سودا = س + د + ا = savdo

v) (vov) harfi so'z boshida alif bilan birgalikda u va o' unlilarni ifodalaydi. Misollar:

او + ت = ut

72-mashq. Ushbu so'zlarni o'qing va ko'chirib oling:

اگر مگر گپ نمندگان سمرقند قند نادان نان خرسند سنگ

g) u va o' unlilari so'z oxirida va o'rtasida kelganida hech qanday vositachi harfsiz و (vov) harfining o'zi yozilaveradi. Uning u, o' yoki v ekanligi so'z ma'nosiga qarab anglab olinadi. Masalan:

اوقات (ning ko'plik shakli) - اوقات

قوم ، ذوق

73-mashq, و (vov) harfining alohida hamda bog'langan holatdagi shakllarini olti qatordan yozing.

74-mashq. Ushbu so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing:

وکالت امکان مولانا وقت بسولت سولت وعده سو دولت
اوقات دوام دعوا وجود وحدت اوشاق

75-mashq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

حيوانات وحشی

حيوانات وحشی در جنگلها زندگی کرده حیوانات کوچکتر از خود را شکار می کنند

عدد حیوانات وحشی بیشتر از حیوات اهلی هستند. شیر' گرگ' پلنگ' روباه' فیل خرس' شغال' از قبل حیوانات وحشی میباشند. انسان برای تربیت حیوانات وحشی نیز قادر است.

O'N TO'RTINCHI DARS

ه (hoyi havvaz) va ی (yo) harflari

ه (hoyi havvaz) arab-fors alifbosidagi o'ttiz birinchi harf bo'lib, har ikkala tomondan keluvchi harflarga qo'shib

yoziladi. Shuning uchun ham to'rt xil پ

ko'rinishga ega: (yakka holda ه, so'z boshida ه yoki ه,

so'z o'rtasida ه yoki ه, so'z oxirida ه yoki ه). Satr chizig'ida yoziladi. Hoyi havvaz o'zbek tilidagi bir necha tovushni ifodalashga xizmat qiladi:

a) so'z boshida, o'rtasida kelganida h tovushini ifodalaydi:

همه = ه + م + ه - hame

b) so'z oxirida kelganida ham arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan 'so'zlarda h tovushini ifodalaydi:

h,e.
i,ye,yu,yo,ya,ey.

درس چهاردهم

ه ه ه ه ی

ماه = ه + ل + م - moh

توجه = ت + و + ج + ه - tavajjo'h

v) ه arabcha va forsha so'zlarda so'z oxirida kelganida e unisini ifodalab keladi:
Masalan:

مره = م + ر + ه - marre

مهكمه = م + ه + ك + م + ه = mo'hokeme

Hoyi havvazning bosma va yozma shakllari bir-biridan farq qiladi. Hoyi havvaz so'z boshida kelganda bosma shaklida quyidagicha yoziladi:- همراه

b) Qo'lyozmalarda esa so'z boshida butunlay boshqacha ko'rinish kasb etadi:

Hoyi havvazni ifodalash ucliun bitta ilmoq hosil qilinib- satr chizig'idan pastda o'nga tomon qaratilgan kichkina vergul shaklidagi belgi qo'yiladi: ٧

هجران -hejron kabi.

Hoyi havvaz harfining so'z o'rtasidagi ko'rinishlari yozma va bosmada o'zaro farq qiladi.

Bosnia holatda ٧ shaklida, yozma usulda ٧ yoki ٧ tarzida yoziladi. Ayrim toshbosma kitoblarda mini vergul shakldagi belgi harfning so'z o'rtasidagi shaklida ham qo'yilishi kuzatiladi: نهر - nahr kabi. Xuddi shunday fikrlarni hoyi havvaz harfining so'z oxiridagi shaklida ham aytish mumkin.

Bosma holatda ٧. yozma shaklda esa ٧ tarzida beriladi.

76-mashq. ه (hoyi havvaz) harfining so'zning turli o'rinlaridagi shakllarini olti qatordan yozing.

74-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing:

ظهر هرگز شهر هوس بها هوا شهرت يکه کله شجره برهم
دهر ظاهر اول مره اره شکایت شوکت کفایه مهارت

77-mashq Mazkur so'zlarni fors alifbosi asosida yozing, hoyi havvaz qanday vazifada kelganligini aniqlang:

chahor, xone, bechore, humo, mehmon, mehro'bon, moher, hajv, hush, baho, hayejon,

78-mashq. Hoyi havvazning so'z boshidagi shakliga o'ntacha misol topib yozing.

79-mashq. O'zingiz mustaqil ravishda hoyi havvazharfining unli tovushni ifodalab kelgan holatiga beshta misol toping va ular asosida sodda gaplar tuzing.

80-mashq. ن (nun), و (vov), ه (hoyi havvaz) harflari ishtirok etgan so'zlardan toping, ular asosida gap tuzing.

81-mashq. Mustaqil ravishda hoyi havvaz harfining so'z oxirida h tovushsini ifodalab kelgan holatiga misollar topib yozing,

ی (yo) harfi o'ng va chap tomondan kelgan harflarga qo'shib yoziladi. To'rt xil yozilish

shakli mavjud (yakka holda , so'z boshida , so'z o'rtasida , oxirida ).

ي (yo) harfining yakka hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Harfining so'z boshi va o'rtasidagi shakllariga o'xshash, lekin nuqtaning miqdori va o'rni bilan ulardan farqlanadi. Bu harfining ikki nuqtasi bor va ular ت (te) harfiga teskari holda ي kabi harfining ostki qismiga qo'yiladi.

ي harfi:

I. so'z boshida: a) ye ni ifodalaydi:

ي + ك = يَك yek;

b) so'z o'rtasidagi ey diftongini ifoda etadi:

م + ي + د + ا + ن = مَيْدَان - meydon

v) so'z oxiridagi y undoshini ifodalaydi:

ت + ي + ك + ي = تَاكِي - tokey.

II.a) so'z boshida i unlisini ifodalaydi, bu holatda yoydan oldin alif orttiriladi:

ا - ي + ر + ل + ن = اَيْرَان - iron

b) so'z o'rtasida va oxirida cho'ziq i unlisini ifodalaydi:

ش + ي + ر + ي + ن = شِيرِين - shirin

III. -iy tovush birikmasini ifodalashga xizmat qiladi:

ج + ي + م + ي = جَامِي Jomi

ل + ي + ط + ف + ي = لُطْفِي - Lo'tfi

82-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing:

قيامت ايلاج پيدا خلقت خلق خيل تاكى لطفى جامى نوايى
شكايت شايد شيدا شايد مى ميدان ايمان شيرين

O'N BESHINCHI DARS

درس پانزدهم

Arab yozuvining ba'zi o'ziga xosliklari

Arab imlosining murakkab tomonlaridan biri, oldingi darslarimizda ta'kidlanganidek, unli tonushlarning yozuvda ifodalanmasligi, bosh va kichik harflarning berilmasligi bolsa, ikkinchi bir murakkab jihati, yozuvda tinish belgilarining qo'yilmasligi va bo'g'in ko'chirishning yo'qligidir. O'tmishdagi qo'lyozma kitoblarda tinish belgilari - vergul, nuqta, so'roq va undov alomatlarini qo'yish rasm bo'lmagan. Bir jumla tugab, ikkinchisi boshlanishi yoxud gapning xabar, so'roq, undov ma'nolari ham matndan kelib chiqqan holda, ya'ni gapning umumiy ruhi, mazmuni va ohanggi orqali payqab olinadi.

Ana shu murakkablik inobatga olinib, hozir arab yozuvida tinish belgilarini ifoda etish odat tusiga kirgan. Ulardagi tinish belgilari biz hozirda qo'llayotgan belgilarga teskari shakldadir: so'roq alomati- ؟ , vergul - ، shaklida ifodalanadi. Lekin nuqta va undov belgilari bundan mustasno. Umuman olganda arab yozuvida bir so'zni bolib, ikki satrda yozish mumkin emas. Biroq ba'zi hollarda (ko'proq litografik nusxalarda), bo'g'in ko'chirish zarurati tug'ilib qolsa,

ko'chiriladigan so'zning so'nggi harfi yuqoriga chiqarilib, qayirib qo'yladi. Qo'lyozma manbalarda odatda bo'g'in ko'chirilmaydi. Agar biron so'zni yangi satrga ko'chirish lozim bo'lib qolsa, o'sha so'zdan oldingi so'zning harflari satrdagi bo'shliqni to'ldirish maqsadida maxsus cho'ziq qilib yoziladi.

Arab imlosida ayrim harflar yozuvda ifodalansa ham, og'zaki nutqda talaffuz qilinmaydi, masalan:

خوارزم (xvorazm) - Xorazm, خواجه (xvoja) - xoje, خویش (xvish) – xish
خواندن خواستن خواهر حتی مصطفی (qarindosh).

Arab – fors alfavitida atoqli otlar va gapning boshlanishi uchun maxsus harflar yo'q. Yozuvda atoqli va turdosh otlar uchun va butun boshqa hollarda bir hajm va shakldagi harflar ishlatiladi.

Fors yozuvida ~ **maddadan** boshqa hamma diakritik belgilar odatda tushib qoladi.

مجله آفتاب دقت نقاش اصلا جلال الدین آداب آباد

Diakritik belgilarning, xususan, unlilarning yozuvda ifoda etilmasligi so'zlarni to'g'ri o'qish va yozishni birmuncha qiyinlashtiradi

O'N OLTINCHI DARS

درس شانزدهم

حروف متصله، حروف منفصله

Muttasil va munfasil harflar

Arab alifbosidagi harflar o'zining shakl ko'rinishlariga qarab ham ikkiga: to'rt xil shaklda yoziluvchi hamda ikki xil shaklga ega harflarga bo'linadi. Birinchi guruh, ya'ni to'rt xil shaklga ega harflar 25 ta, ular quyidagilar:

ب پ ت ث ج چ ح خ س ش ص ض ط ظ ع غ ف ق
ک گ ل م ن ه ی

Ikkinchi guruh – ikki xil shaklga ega harflar esa yettita, ular:

ا د ذ ر ز ژ و

Shakliy ko'rinishlariga ko'ra harflarni sal boshqacharoq guruhlashtirish ham mumkin: ularni yozuvda bir-biriga qo'shilish va qo'shilmasliklariga qarab ham tasnif qilsa bo'ladi:

O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shib yoziladigan harflar. Ya'ni har ikkala tomonidan qo'shiluvchi harflar:

ب پ ت ث ج چ ح خ س ش ص ض ط ظ ع غ ف
ق، ک گ ل م ن ه ی

O'zidan oldingisiga qo'shilib. keyingisiga qo'shilmaydigan harflar (ya'ni faqat bir tomondan qo'shiluvchi harflar 'ا، د، ذ، ر، ز، ژ، و

حروف O'zidan oldingi harflarga qo'shilib yoziladigan harflar fors grammatikasida **منفصله** ho'ruf-e mo'nfasele (ayrilgan harflar) deb ataladi. Bu yetti harfning har biri yozuvda faqat alohida shaklda bo'ladi:

Ikkinchi guruh harflari 25 ta bo'lib, fors grammatikasida **حروف متصله** ho'ruf-e mo'ttasele (qo'shilgan harflar) deb ataladi.

Yuqorida keltirilgan yigirma beshta harf ana shu siraga kiradi. Bu harflar o'zining o'ng va chap tomonidagi harflar bilan qo'shib yozilganligi sababli yozuvda alohida shaklda kelishidan tashqari yana uch xil ko'rinishda bo'ladi. Bu harflarning alohida shakli hech o'zgarishsiz alifboda qanday berilsa, shunday yoziladi. Qolgan shakllari ham alifboda ko'rsatilganidek qilib yoziladi. Aksariyat harflarning so'zning turli o'rinlaridagi shakllariga diqqat qilinsa, ularning o'z asliga juda kam o'xshaydigan shakl ko'rinishlarini sezish mumkin. Aslida arab-fors alifbosidagi harflar so'zning hamma o'rinlarida bir xildir. Ularni chigal va murakkab ko'rsatuvchi narsa -harflarni yonigagi bilan o'zaro bog'lash maqsadida keltiruvchi chiziqlar hisoblanadi

Misol sifatida te harfining turli shakllarini kuzatamiz. Bu harfning alohida holdagi shakli - **ت**, so'z boshidagi shakli - **ت**, so'z o'rtasidagi shakli - **ت**, so'z oxiridagi ko'rinishi esa **ت** tarzida yoziladi. Te harfining so'z boshidagi, o'rtasidagi hamda oxiridagi shakllariga qaratilgan bo'lsa, harfning asosiy qismi saqlangan, o'zgarish faqat o'zidan oldingi va keyingi harfiarga qo'shiluvchi chiziqlar hisobiga sodir bo'lgan.

O'zidan oldingisiga qo'shib keyingisiga qo'shilmaydigan harflar esa ho'ruf-e mo'nfasele (ajraluvchi) deb ataladi. Bularga yuqorida keltirilgan ettita harf kiradi: Bu etti harfning har biri yozuvda ikki xil shaklda bo'ladi:

a) alohida yozilish shakli: **ا د ذ ر ز ژ و**

b) o'zidan oldingi harfga qo'shib yoziladigan shakli **وا ذر زو ژو**

-ajdar, **اژدر** - o'ulod, **اولاد**, **داریا** - daryo, **برادر** - barodar.

83-mashq. Muttasil (har ikki tomonidan qo'shib yoziluvchi) harflarning har birini bir necha qatordan yozib chiqing. Ularning alifbodagi o'rniga e'tibor qiling.

84-mashq. Munfasil (bir tomondan qo'shib yoziluvchi) harflar ishtirokidagi so'zlarga misollar yozing.

85-mashq. Munfasil harflardan uchta ishtirokidagi so'zlardan topib, arab alifbosi asosida yozib chiqing.

86-mashq. Tubandagi jummalarni o'qing, harflarning bog'lanishiga diqqat qiling:

ما در قرشی زندگی می کنیم. برادر من در تاشکند زندگی می کند. او
در تهران کار می کند. تو به دوستت کمک نمی کنی؟ هر روز با پسر من
گردش می کنم. شما در دانشگاه درس می خوانید؟

87-mashq. Faqatgina munfasil harflardan foydalangan holda qanday so'zlar yasay olasiz?

ON YETTINCHI DARS

درس هفدهم

Satr chizigida va satr chizigidan pastga tushirib yoziluvchi harflar

Har bir harfga xarakteristika berish asosida ko'rib o'tganimizdek, arab alifbosidagi harflar yozilishiga qarab ham ikki turga bo'linadi.

Satr chizig'ida yoziladigan harflar. Bunga: **ا ب پ ت ث ط ظ ف ک گ**

harflar kiradi.

2. Satr chizigidan pastga tushadigan harflar

Bunga خ چ ح د ذ ر ز ژ س ش ص ض ع غ ق ل م


ی harflari kiradi.

Harflarning satr chizig'iga nisbatan yozilish o'rni

Albatta, bu tasnif ham nisbiy. Chunki mo'nfasele harflarning ayrimlaridan tashqari deyarli barcha harflarning so'z boshi va so'z o'rtasidagi shakllari satr chizig'ida yoziladi.

88-mashq. Husnixatga diqqat qilgan holda satr chizig'ida bitiluvchi harflarni ajratib yozing va ular asosida gaplar tuzing..

89-mashq. Husnixatga e'tibor qilib satr chizig'idan pastga tushirib yoziladigan harflarning



turlicha ko'rinishlarini yozing.

90-mashq. Tubandagi jummalarni o'qing va har bir harfni satr chizig'ida qanday yozilishiga. bog'lanib-bog'lanmasligiga qarab ta'riflang:va ko'chirib yozing.

این پسر است. این سیب است. این نان و پنیر است. آن آب است. آن شیر است، آن پتو زرد است. آن دیوار سبز است. آن زن است. او استاد است. ساسان با شاپور دوست است. این در است. این زبان آسان است. دُرُست است. او نیز ایرانی است. آن پَتو نُو است. این زانو است. این بازو است. این بینی است. آن پیشانی است. این رادیو است. این رادیو نُو است. آن آسیا است.

O'N SAKKIZINCHI DARS

درس هجدهم

Arab alifbosidagi o'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlarni ifodalovchi harflar

Arab alifbosiga diqqat qilsangiz, bizning tilimizdagi bir tovushni ifodalash uchun ikki, uch va hatto to'rt harf mavjudligini ko'rasiz. Masalan:

ط ت - harflari t tovushini.

ح ه - harflari h tovushini

ذ ز ض ظ - harflari z tovushini

ث س ص - harflari s tovushini ifodalaydi.

Bulardan ت ه ز س harflarigina o'zbek tilidagi tovushlarga yaqin keladi. Qolgan sakkizta harf faqat arab tilidan o'tgan so'zlardagina uchraydi. Ular bizga bir xil tovushdek tuyulsa-da, aslida esa arab tilida talaffuzi jihatidan keskin ravishda farqlanadi. Bu harflar o'zbek va fors tillariga arab so'zlari bilan birga kirib kelganligi sababli, ular shu tillarning tovush tizimiga bo'ysungan hamda o'zining talaffuzida farqlanuvchi xususiyatlarini yuqotgan.

O'zbek tilida bu harflar ifoda etgan tovushlar orasida hech qanday farq ko'zga tashlanmaydi. Lekin tilimizning lug'at tarkibiga kirgan arabcha so'zlarda arablar qaysi harfni qo'llagan bo'lsalar, biz ham shu so'zni yozishda o'sha harfni ishlatamiz.

Muayyan bir so'zda yuqoridagi harflardan qay biri ishlatilishni faqat yodda saqlash orqaligina bilish mumkin. Chunki qayd etilgan tovushlarning barchasi o'zbek tilida bir xilda talaffuz qilinadi.

Misol sifatida z tovushini olaylik. U o'zbek tilida yagona talaffuz me'yoriga ega. Arab tilida esa talaffuz etilishiga qarab turli harflar bilan yoziladi. Solishtiring:

zolem - ظالم, g'azab - غضب, zekr - ذكر, ziynat - زينت

91-mashq. Faqat arab tilidan o'tgan so'zlargagina xos bo'lgan tovushlar ishtirokida so'zlarga misollar yozing va ular asosida gap tuzing.

92-mashq. Quyidagi so'zlarni uqing, qanday harflar bilan ifodalanishini yodda tuting:

وصل وطن وظيفه وحشت وثيقه وارث نمط نقصان نصيحت
تنقيص طقريظ امضا اصول اصلا اصلاحات اصراف حظای حاصيت
حاصل حصه حيرت جراه جثه ثواب ثمره ثبوت ثور تصادفاً تعظم
تعطيل تصنيف تذكيره تلفظ رخصت رابته ذريات ذهن ذولفقار ذوق
ذكاوت خصلت صقت صداقت صادق صدقه صاف سلطان رياضت
رذيل صنوبر صلابت صفداش صميمى صندوق صلح صنم صنف
ضرورت ضرب ضديت صيفل صولت صورنى صورت طلعت طلسم
طبقه طالع طاقت ضيافت ضيا ضعيف ضرر ظلمت طومار طوفان
طلبه طيار طعام طناب غصه عيار علاوه عطا عذاب عشر عار
عصب عشوه عجاب عجابت عداوت عامل عارض عاجز عذر
عاصى قصد قصه قصاص قرض قحت قطب فضلت فصل غواص

O'N TO'QQIZINCHI DARS

درس نوزدهم

Unli tovushlarning yozuvda ifodalanishi

Dunyodagi aksar tillarda unli va undosh tovushlar va shunga mos harf belgilari mavjud. Garchi fors tilida ham unli va undosh tovushlar bo'lsa-da, unli tovushiarning hammasi ham yozuvda ifodalanavermaydi. Fors tilida qisqa unlilar talaffuz etiladi-yu, yozuvda tushib qoladi. Arab alifbosida unlilarni ifodalovchi maxsus harflar yo'q, biroq ba'zi bir belgilar unli

tovushlarni bildirish vazifasini o'taydi.

Unli tovushlar. Unli tovushlar deb talaffuz jarayonida biron to'siqqa uchramaydigan tovushlarga aytiladi. Fors tilida olti unli fonema va ikkita diftong mavjud: Bular quyidagilar:

“i”, “e”, “o”, “u”, “o'”, “a” yakka unlilar va “ey”, “o'u” diftonglari.

Fors tili unlilarning o'ziga xos belgilaridan biri ulardagi cho'ziq qisqalik xususiyatidir.

Zamonaviy ko'rsatgichga ko'ra:

“u”, “o”, “i”, (مصوتهای ساده بلند) cho'ziq unlilar, “e”, “a”, “o'” (مصوتهای ساده کوتاه) qisqa unlilar hisoblanadi.

Cho'ziq unlilar urg'uli, urg'usiz, ochiq yoki yopiq bo'g'inlarda kelishidan qat'i nazar, o'z cho'ziqlik xususiyatini saqlab qoladi.

Qisqa unlilar esa urg'uli bo'g'inlarda urg'u tushmaydigan bo'g'inlarga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun ba'zan bu unlilarning bu xususiyatlarini nazarga olgan holda sobit unlilar, “i”, “u”, “o” va nosobit unlilar “e”, “a”, “o'” ga ham ajratiladi.

Cho'ziq unlilar ا و ی harflari bilan ifodalanadi. Qisqa unlilar esa harakatlar bilan ifodalanadi, harakatlar undoshlarning osti va ustiga qo'yiladi:

1. qisqa “a” unlisi yozuvda zabar (arabcha – fatha) deb nomlanuvchi harakat bilan ifodalanadi. harfning ustiga chiziqcha qo'yish opqali a unli tovushini ifodalagan.

دَر dar – eshik زَرْد zard – sariq

2. qisqa “e” unlisi yozuvda zir (arabcha – kasra) deb nomlanuvchi harakat bilan ifodalanadi. Harfning ostiga chiziqcha qo'yish opqali e unli tovushini ifodalagan.

پَدَر pedar – ota, دِرَاز deroz – uzun.

3. qisqa “o'” unlisi yozuvda pish (arabcha – zamma) deb nomlanuvchi harakat bilan ifodalanadi. Harfning ustiga kichkina vergul shaklidagi belgi qo'yish opqali o' unli tovushini ifodalagan.

تُوْند to'nd – tez, دُوْرد do'ro'd – salom.

Unlilarning so'z boshida ifodalanishi. Fors tilidagi barcha unlilar so'z boshida kelsa bir alif orttirilib yoziladi. O unlisi so'z boshida alif ustiga qo'yiladigan madda □ (arabcha – cho'zilgan) orqali ifodalanadi. So'z o'rtasida va oxirida madda tushib qoladi. آورْدن ovardan – keltirmoq.

Misollar: اَبْرُو abru – qosh, اِدَارَه edore – idora, اُروپا O'rupo – yevropa, اُرد ord – un اِيران , Iron – Eron او u – u,

Diftonglar. Ikkita unli tovush birikmasini ifodalagan tovushga diftong deyiladi. Masalan: eyvon, keyvon, so'ugand, xo'dro'u.

Diftonglar so'zda faqat undosh tovushlardan avval so'z boshida, so'z o'rtasida va oxirida uchraydi.

Unli tovushlardan oldin hech qachon diftonglar uchramaydi va bunday holatlarda diftong birikmasining ikkinchi bo'lagi undosh tovushga aylanadi: peyro'u- peyravon – peyravi.

Fors tilida ikkita diftong (qo'sh tovush) bor : ey va o'u. Bu diftonglar talaffuz qilinganda, ularni ikki bo'g'inga bo'lib emas, balki birga qo'shib bir butun talaffuz qilish kerak. Bunda diftonglarning birinchi harfi ikkinchisiga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi.

1. ey diftongi o'zbek tilidagi undov so'zi ey yoki inglizcha mey, dey so'zlaridagi diftong tovushlaridek talaffuz qilinadi بَيْن beyn – ora, o'rta.

2. o'u diftongi inglizcha now so'zidagi ow diftongiga solishtirib, to'g'ri talaffuz qilish mumkin. نو no'u – yangi, بَرُو bero'u – bor.

93-masbq. Harflarining cho'ziq unilarni ifodalab kelgan holatiga uchtdan misol yozing.
94-masbq. Qiiyidagi so'zlarni arab yozuviga aylantiring, unli harflaming tagiga chizing va unlarning yozuvda ifodalanishini tushuntirib bering:

bo'zo'rg, go'l, dust, gusht, dast, doneshgoh, obod, ozod. bobo, doneshyor, bo'lbo'l, tuti, delorom.

YIGIRMANCHI DARS

درس بیستم

Harakatlar

Harakatlar tilshunoslikda diakritik belgilar deb yuritiladi. Harakatlar - arab yozuvida unli harflarni ifodalashning muhim usullaridan biri. Ular, odatda, qo'lyozma asarlarda tushirib qoldiriladi. Ayrim manbalardagina yozuvda harakatlarning ifodalanishini ko'ramiz. Bevosita tilga taalluqli tadqiqot bo'lgani, turkiy til haqida arab tilida ma'lumot berilgani uchun Mahmud Qoshg'ariyning "Devone lug'otut-turk" asarida ham yozuv harakatlar bilan berilgan.

Harakatlarning yozuvda tushib qolishi o'qishni, savod chiqarishni murakkablashtirgan. Islomning muqaddas kitoblaridagina ajam (arab bo'lmagan musulmon mamlakatlari) xalqlariga tushunarli bo'lishi uchun harakatlar yozuvda aks etgan. Arabcha so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish gunoh sanalgan. Matnni boshdan-oxir harakatlar bilan berish, xususan, "Qur'on"da ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, yozuvdagi bu tartib XI-XIV asrlarda O'rta Osiyoda ko'chirilgan ayrim manbalarda aniqrog'i, tilshunoslikka oid kitoblarda ham uchraydi.

Zabar. Unli tovushlarni ifodalovchi harakatlarning birinchisi fatha. Fors-tojik tilida esa bu belgi *zabar* deyiladi. Fatha yoki zabar yozuvda harfning ustiga chiziqcha qo'yish opqali qisqa a unli tovushini ifodalagan. Masalan, mashq so'zi arab yozuvida qisqa unilar qayd qilinmasligi sababli quyidagicha yoziladi:

مَشَقْ - (mashq). Bu so'zdagi a unlisini ifodalash uchun zabar belgisi

م (mim) va ش (shin) harflarining o'rtasiga qo'yiladi: Misollar: قَمَر - qamar (oy),

صَفَر - safar, كَمَر - kamar.

95-masbq. Quyidagi so'zlarga zabar belgisini qo'yib o'qing:

عالم، طلب، شوکت، شکایت، شرشره، شکر، سعادت، معما، شرح،
شبّهم، منفعت، طرف، ظفر، منظره، مقاله، معلم، بهار، شجره، شفق،
معرکه، قلندر، شطرنج، شرف، سبق، مکار، مکر

96-masbq. Tubandagi so'zlarni fors alifbosi asosida yozing va fatha belgisini tegishli o'rniga qo'ying:

farzand, qasd, falak, kalam, baxt, nafar, bastekor, jang, habash, harakat, xabar, daromad, daraja, haqiqat, rasadxone, satr, g'araz, sarhad, qalam, sarkash, sadaf, farahbaxsh.

Zir. Qo'llaniladigan ikkinchi belgi arabchada *kasra*, fors-tojik tilida esa *zir* deb nomlanadi. Bu belgi zabar belgisiga qarama-qarshi o'laroq, harfning tepasiga emas, balki ostiga

chiziqcha quyish orqali ifodalanadi. zir e tovushini ifodalab keladi. Masalan. kitob so'zini zir bilan yozganda quyidagi holatni ko'rish mumkin: **كِتَاب**

Agar bu so'zga zir belgisi qo'yilmaganda, uni katab yoki kutub deb ham o'qishimiz mumkin edi.

97-mashq. Mazkur so'zlarga zir belgisini quyib o'qing:

شمال، شتاب، كتاب، مالك، طالب، كناية، بساط، بسيار، مقراض،
مثقال، ندا، نیاز، مثال، مثل، منت، منبر، ملت، منطقه، كشور، كفايه،
نگار، نگاه

98-mashq. Mana bu so'zlarga kasra belgisini qo'yib, ularni fors alfaviti asosida yozing va shu so'zlar ishtirokida gap tuzing:

pesar, xeroj, mag'reb, hozer, hokem, hofez, hers, hosel, gardesh, qeroat, parhez, foseq, sehr, zehn, zekr, molek, xoles, kelos, ketob, komel, sober, sefid.

Pish(pish) **ُ** . Uchinchi belgi arabchada zamma, fors-tojik tilida *pish (pesh)* deb ataladi. Bu belgi, asosan, o' unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Pish ham xuddi zabar kabi harming ustiga qo'yiladi. Lekin farqi shundaki, pish harf ustiga chiziqcha quyish bilan emas, balki kichkina vergul shaklidagi belgi bilan hosil qilinadi. Masalan, *shukr* so'zipish belgisi bilan ifodlanganda shunday yoziladi: **شُكْر**

Misollar:

صُلح - so'lh, مژده - mo'jde, قُفل - qo'lf, خُدا - jo'do,

99-mashq;. Tubandagi so'zlarga pish belgisini qo'yib o'qing va ular ishtirokida gap tuzing:

گلاب گل، برج، بنیاد، بلبل، دشوار، دشمن، دنیا، کناه، گمراه گنگ
گلعدار گلچهره مبتلا، کفر، زهره، زلف، ظلمت، ظلم جرأت، جمله،
جوان، مدام، مدرس

100-mashq. Quyidagi so'zlarga pish belgisini qo'yib arab alifbosi asosida yozing:

no'qre, no'qte, no'tq, g'o'rur, so'bh. mo'rg', bo'lbo'l, sho'to'r, tabasso'm, ho'rmat, panjo'm, bo'xori, bo'xori, to'xm. xo'susan, go'l, po'l, mo'handes, qosho'q, do'xtar.

YIGIRMA BIRINCHI DARS

درس بیست و یکم

Satr osti va satr usti belgilari

Yuqorida so'z yuritilgan zabar, zir va pish ham arab satr osti va usti belgilari tarkibiga kiradi. Lekin ular faqat unli harflarni ifodalashda qo'llanadi. O'qish, yozish va to'g'ri talaffuz qilishga yordam beruvchi yana bir necha belgiar ham borki, ular ham yozuvda juda kam hollardagina qayd etiladi. Bunday belgilarga quyidagilar kiradi:

1. **Tashdid** (ikkilantirish degan ma'noda) mana bunday shaklga ega: Tashdid so'zda faqat undosh harflarning ustiga qo'yiladi. Tashdid belgisi tushgan undosh ko'chaytirilgan, ikkilantirilgan holda talaffuz etilishi kerak. Bu belgi ko'pincha arab tilidan o'zlashgan so'zlarga qo'yiladi. Yozuvda yonma-yon kelgan bir undoshni ikki bor takrorlash arab alifbosi qoidasi bo'yicha mumkin emas. Arab yozuvida qo'sh undoshli so'z kelganda, o'sha undoshning biri yozilib, uning ustiga tashdid belgisi qo'yiladi va shu orqali so'zda ikkita bir xil tovush borligi anglashiladi.

Misollar: مَكَّار - makkor, عَطَّار - attor, مَحَلَّة - mahalle, ناقش - naqqosh.

Ba'zi hollarda tashdid belgisining ustiga zabar va pish belgilari qo'yilishini ham ko'ramiz. Bu esa har ikkalasini ham o'qish zarurligini bildiradi. Buning uchun avval tashdid ostidagi undoshni takrorlab, so'ngra tashdid ustidagi harakatni o'qish lozim. Macalan: **أول** - avval, **تبسم** - tabasso'm

101-mashq. Quyidagi so'zlarga tashdid belgisini qo'yib o'qing:

أول دقت تبسم مجله نقاش شك تمدن وضعيت عطار

2. **Hamza** arab satr usti belgilaridan biri. Yozuvdagi belgisi quyidagicha: ء

Bu ham odatda arab tilidan kirgan so'zlarda uchraydi. Hamza ko'pincha unli harflarning ustiga qo'yiladi va talaffuzda unli tovushni undosh tovushdan farqlashda hamda qator kelgan ikki unlining qo'shilib ketmasligini ta'minlaydi. Misollar: **تأثرات** - ta'ses, **تأسس** - taasso'rot,

Hamza yozuvda ikki unli qator kelganda ikkinchi unlining ustiga qo'yiladi.

102-mashq. Tubandagi so'zlarni hozirgi o'zbek alifbosi asosida yozing:

**تأريخ تأمين تأكيد سؤال مؤسسه مؤلف مؤمن املاء ابتداء
انشاء**

3. **Tanvin** ham arab satr usti belgilaridan. Tanvin faqat arab tilidan kirgan so'zlarda qo'yiladi. Uning yozuvdagi shakli َ _ Tanvin ko'pincha so'z oxiridagi harfning ustiga kichkina parallel ikkita chiziqcha qo'yish orqali hosil qilinadi. Bu belgi faqat so'z oxirida keluvchi alif ustiga qo'yilib (ا), talaffuzda an tovush birikmasini beradi. Misollar: **مثلاً** - masalan, **قصدًا** - qasdan.

Tanvinning zabar ا , zir ى hamda پ pish harakat belgilari bilan keiishi ham kuzatiladi. Bunday holda alif ustiga tanvin va uning tepasiga zabar yoki zir belgisi qo'yiladi va u zabarlik bo'lsa, (ا) - an, zirlik bo'lsa, (ى) - in, pish lik bo'lsa, (پ) - un tarzida talaffuz qilinadi.

103-mashq. Mazkur so'zlarni hozirgi o'zbek yozuviga aylantiring:

**اولاً شخصاً، معناً، شكلاً، بعضاً، ذاتاً، خصوصاً، تقريباً، حقيقةً، تاريخاً،
بناً، تصادفاً، جسمانياً، اعتباراً**

104-mashq. Tubandagi so'zlarni arab alifbosi asosida yozing:

shaklan. mazmunan, asosan, tarixan, zemnan, zoheran, botenan, benoan, umuman, lutfan. qesman, haqiqatan, takroran, aslan, moheyatan,

4..**Madda** - □ belgisi. Bu faqat bitta vazifani bajaradi: u so'zning boshidagi alif ustiga quyilib (آ), o'sha tovushni a deb emas, balki o unlisi tarzida talaffuz qilishni talab eladi.

Misollar: آداب -odob, آفتاب -oftob.

105-mashq. Quyidagi so'zlarni arab alifbosi asosida yozing:

omad, ozod. oshyon, ogoh,bobo, salom, bod, bozu, bozi, otadh, ohan, boron, bog', modar, oyo, sol, solem, shom, sho'er, zoher, mor, mors, most, moher.

5.**Sukun.** ◌ Bu belgi ba'zan sokin ham deyiladi. Uning asosiy vazifasi bo'g'inning yopiq ekanligini bildirish. U o'sha bog' in oxiridagi undosh harf ustiga quyidagicha yumaloq shakl qo'yish orqali hosil qilinadi: ◌

Misollar: فرزند - farzand, مرحمت - marhamat

106-mashq. Ushbu so'zlarni arab alifbosi asosida yozing, sukun belgisini kerakli o'ringa qo'ying:

darbon, bandargoh, taqder, tasnef, savdo, rahbar, xarsang, tasdeq, hasrat, taklef, tashakko'r, bog'bon, do'xtar, pesar, bo'lbo'l, farhamg,daftar, mo'frad, hamnafas,dandon.

6.**Vasla** - ◌ . Arab tilidagi aniq lik artikli . ال birikmasining ustiga qo'yiluvchi mana bunday◌ shaklga ega bo'lgan belgi vasla deb yuritiladi. Arabcha **vasla** so'zi qo'shish degan ma'noni bildiradi.

Misollar: دارالفنون - dor-o'l-fo'nun. Vaslaning yozuvdagi shaklini madd belgisi bilan aralashtirib yuborish yaramaydi.

Yuqorida tilga olingan belgilar qo'lyozma manbalarda ko'pincha yozilmasdan ketilaveradi. Lekin, shunday bo'lsa ham ularning xususiyatlarini bilib qo'yish foydadan xoli emas.

107-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing, vasla belgisini tegishli o'ringa qo'ying:

طالب المعلم، دار البقا، دار الشفا، عجا ب المخلوقات، لسان الطير،
محبوب القلوب

108-mashq. Tubandagi so'zlarga tegishli harakatlar - arab satr osti va satr usti belgilarini qo'yib yozing:

ترقيات، تنفس، تكلم، لسان العرب، ميسر، مصور، منور، قصص
الانبيا، تبرك، مشقت، علت، تكبر، باطناً، عفت، مناظره، عايت الله،
عبداللطف

109-mashq. O'zingiz mustaqil ravishda zabar, zir, pish, tanvin va tashdid belgilari ishtirok etuvchi so'zlardan beshtadan misol yozing.

YIGIRMA IKKINCHI DARS

درس بیست و دوم

Arab izofasi. Shamsiv va qamariy harflar

Izofa - so'zining lugaviy ma'nosi qo'shish va bog'lash demakdir.

Aniqlanmish va aniqlovchi, qaralmish va qaratqich munosabatlarini ifodalovchi tushuncha **izofa** deb ataladi.

Arab izofasining ko'rsatkichi **ال** (al) (yoki o'l) ikkala so'z o'rtasida kelgan holda ularni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. U ko'pincha asar va joy nomlarida, kishilarning ismlarida ko'zga tashlanadi. Izofa ko'rsatkichi hisoblanmish **ال** (o'l) har doim ham talaffuz qilinavermaydi, lekin yozuvda albatta, qayd etiladi. Uning qaysi paytlarda talaffuz qilinishi yoki qaysi paytlarda talaffuz qilinmasligini bilish uchun *shamsiy* va *qamariy* harflar xususida ham to'xtalib o'tish lozim.

Arab alfavitidagi harflar o'z tabiatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh harflar **حروف شمسی** ho'rufe-shamsi ("quyosh harflari") deb yuritilib, unga quyidagi 14 harf kiradi:

ت، ث، د، ذ، ر، ز، س، ش، ص، ض، ط، ظ، ل، ن

Ikkinchi guruh harflar esa **حروف قمری** ho'rufe qamari (oy harflari) deb ataladi va unga tubandagi 14 harf kiradi:

ا، ب، ج، ح، خ، ع، غ، ف، ق، ك، م، و، ه، ي

Arab tilida aniqlanmish aniqlovchidan oldin keladi. Ularni o'zaro bog'lovchi o'l izofa ko'rsatkichidan keyin kelgan harf shamsiy harflarga tegishli bo'lsa, **ال** al (o'l) artiklidagi **ل** (lom) talaffuz etilmaydi, undan keyingi harf tashdid bilan, ikkilantirib o'qiladi.

Misollar: **السلام** - assalom, **فخر الدين** - Faxreddin,

نورالدين - Nureddin, **لغت الترك** - lo'g'at-o't-to'rk.

Agar **ال** (al) artiklidan keyin kelgan so'z ikkinchi guruh, ya'ni qamariy harflardan biri bilan boshlansa, **ال** al (yoki o'l) to'liq talaffuz qilinadi. Misollar:

الخوارزمي - al-Xorazmi, **بين الملل** - beyn-o'l-melal,

حيرت الابرار - Heyrat-o'l-abror.

110-mashq. Quyosh harflarini uch qatorqan daftaringizga ko'chirib yozing va yod oling.

111-mashq. Oy harflarini uch qatordan ko'chirib yozing va yod oling.

112-mashq. Quyidagi atoqli otlarni to'g'ri o'qing. Qanday yozilishi va o'qilishini tushuntiring. daftaringizga ko'chirib oling

كمال الدين، زين الدين، صدر الدين، هدايت الله، نعمت الله،
بدر الدين، حكمت الله، شمس الدين، عصمت الله، قدرت الله،
قمر الدين، ظهر الدين، اسد الله، نجم الدين، سعد الله، جمال الدين،
خير الدين.

113-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va arab harflari bilan yozing.

Mo'heddin, Hekmato'lloh, Rahmato'lloh, Sho'kro'lloh, Ho'sneddin,
Abdo'lqahhor, G'eyoseddin, O'baydo'lloh, Seyfeddin, Habibo'lloh,
Abdo'sattor, Ramzeddin, Nasro'lloh, Sa'do'lloh, Abdo'lloh.

YIGIRMA UCHINCHI DARS

درس بیست و سوم

Fors izofasi

إضافة **Izofa** so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, **qo‘shish, orttirish** degan ma‘noni anglatadi. Aniqlovchili birikma butun bir ohang bilan talaffuz etiladi, ya‘ni aniqlanmish bilan aniqlovchi o‘rtasida to‘xtalish bo‘lmaydi.

Fors tilida aniqlovchi bilan aniqlanmish yoki qaratqich bilan qaralmish o‘rtasidagi munosabat urg‘usiz **e** tovushi orqali bog‘lanadi. Shu munosabatni ifoda etuvchi urg‘usiz **e** tovushi **izofa** deyiladi.

O‘zbek tilida bo‘lgani kabi fors tilida ham aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlari mavjud. Ushbu munosabatlar o‘zbek va fors tillarida turlicha ifoda etiladi.

Izofiy birikmada so‘z tartibi quyidagicha bo‘ladi: birinchi navbatda aniqlanmish yoki qaralmish kelib, so‘ngra urg‘u olmagan morfologik ko‘rsatkich **e** kelib, undan so‘ng esa aniqlovchi yoki qaratqich keladi. Masalan:

دانشیار تاریخ	doneshyore torix	tarix o‘qituvchisi
میدان "مستقللیک"	meydone "Mustaqillik"	"Mustaqillik" maydoni

O‘zbek adabiy tilida ham fors tilidan o‘zlashgan *dard-e bedavo, dard-e sar, tarjima-e hol, nuqta-ye nazar, oshiq-e zor, taxt-e ravon, sarv-e noz* kabi ko‘plab forsiy izofiy birikmalar ham ishlatiladi.

Fors tili izofiy birikmasida so‘z tartibi o‘zbek tiliga qarama-qarshidir. Agar o‘zbek tilida avval aniqlovchi, so‘ng aniqlanmish yoxud avval qaratqich, so‘ng qaralmish kelsa, fors tilida esa aksincha, avval aniqlanmish, so‘ng aniqlovchi yoki avval qaralmish, so‘ng qaratqich keladi.

O‘zbek tilida	Fors tilida
→ aniqlovchi → aniqlanmish	aniqlanmish ← aniqlovchi ←
fors tili	زبان فارسی zabone forsi
baland imorat	عمارت بلند emorat-e bo‘land
→ qaratqich → qaralmish	qaratqich ← qaralmish ←
o‘qituvchining qalami	مداد دانشیار medod-e doneshyor
uning qog‘ozi	کاغذ او kog‘az-e u

Fors tili grammatikasida izofiy birikmadagi aniqlanmish **مضاف** **mo‘zof** va aniqlovchi **مضاف الیه** **mo‘zof-un-eleyh** deb nomlanadi. Izofa ko‘rsatkichi doimo **مضاف** **mo‘zof**dan so‘ng qo‘yiladi va **مضاف** **mo‘zof** bilan **مضاف الیه** **mo‘zof-un-eleyh** bir – biriga bog‘lanadi va shu tariqa izofiy birikma hosil qiladi. Izofiy birikmadagi so‘zlar ajralib o‘qilmay, bir butun, umumiy intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Odatda izofiy birikma bir butun sintaktik birlik hisoblanadi.

Fors tilida gap va so‘z birikmalarda so‘z tartibi qat‘iyydir. Izofali birikmalarda ham birinchi o‘rinda aniqlanmish yoki qaralmish, ikkinchi o‘rinda aniqlovchi yoki qaratqich kelishi qat‘iy. Bu tartibning buzilishi birikma mazmunining buzilishiga olib keladi.

O‘zbek tilida aniqlovchili birikmalarda so‘z tartibi fors tilidagi aniqlovchili birikmalardagi so‘z tartibining teskarisidir. Ya‘ni o‘zbek tilida aniqlovchi yoki qaratqich birinchi o‘rinda,

aniqlanmish yoki qaralmish ikkinchi o'rinda keladi. Masalan:

کتاب کهنه	ketobe ko'hne	eski kitob
دیوان مشرب	divone Mashrab	Mashrab devoni

O'zbek tilida ham aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich yoki qaralmish tartibini o'zgartirsak, aniqlovchi va aniqlanmish yoki qaratqich va qaralmish munosabati emas, ega va kesim munosabati hosil bo'ladi. Masalan: chiroyli ko'cha ---- Ko'cha chiroyli.

Izofaning imlosi

1. Undosh bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa **zir** belgisi orqali yozilib, **ه e** deb talaffuz etiladi. Odatda **zir** belgisi yozuvda ifoda etilmaydi. Talaffuzda esa doimo saqlanadi. Masalan:

ساعت طلا	Soat-e telo	tilla soat
زبان فارسی	zabon-e forsi	fors tili
تاریخ ادبیات	Torix-e adabiyot	adabiyot tarixi
" گلستان " سعدی	go'leston-e Sa'di	Sa'diyning «Gulistoni»

2. **ه e** qisqa unlisi bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa **hamza** belgisi orqali ifoda etilib, **ye** tarzida talaffuz etiladi. **hamza** belgisi yozuvda tushib qolishi ham mumkin. Masalan:

صفحه اول	safhe-ye avval	birinchi sahifa
" حمسه " نوائی	hamse-ye Navoi	Navoiyning «Hamsa»si
نویسنده مشهور	navisande-ye mashhur	mashhur yozuvchi
مجله نو	majalle-ye no'u	yangi jurnal
خانه دوستم	xone-ye dustam	do'stimning uyi
دانشکده طب	doneshkade-ye tebb	medisina fakulteti

Cho'ziq unlilar bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa **yo** harfi orqali ifodalanib, **ye** tarzida talaffuz etiladi. Masalan:

بوی گل	bu-ye go'l	gulning hidi
دانشجوی دانشکده	doneshju-ye doneshkade	fakultet talabasi
صدای ترکستان	Sedo-ye To'rkeston	Turkiston ovozi

E s l a t m a: **yo** i cho'ziq unlisi bilan tugagan so'zlarda izofa biror belgi, harakat yoki harf orqali ifoda etilmasdan faqatgina talaffuzda **yo** i unlisidan so'ng bir **ye** qo'shib o'qiladi. Masalan:

صندلی بزرگ	sandali-ye bo'zo'rg	katta stul
ماهی دریا	mohi-ye daryo	dengiz balio'i

Izofali birikma anglatgan ma'nolar.

1. Izofali birikmadagi aniqlovchi ot va kishilik olmoshlari bilan ifodalangan bo'lsa, u holda birikma aniqlanmish bildirgan narsaning ma'lum shaxsga xosligini, mansubligini bildiradi. Bu fors tilida **ملکی اضافه ezofe-ye mo'лки** deyiladi. Masalan:

کتاب پدرم	ketob-e pedaram	otamning kitobi
دیوان لاهوتی	divon-e lohuti	Lohutiyning devoni

2. Agar aniqlanmish biror jonsiz narsaning nomini bildirsa, u holda izofali birikma narsaning jinsini, turini bildiradi. Bunday izofali birikma **بیان اضافه ezofe-ye bayoni** deyiladi.

Masalan:

ساعت طلا	soat-e telo	tilla soat
راه آهنین	roh-e ohanin	temir yo'l

3. Agar aniqlanmish o'rin, payt ma'nolarini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa, u holda izofali birikma o'rin-payt munosabatlarini bildiradi. Bu fors tilida **اضافه زمانی و مکانی** **ezofe-ye zamoni va makoni** deyiladi. Masalan:

هنگام صبح	hangom-e so'bh	tong payti
بالای کوه	bolo-ye kuh	tog' tepasi

4. Aniqlanmish bilan aniqlovchi birikmasi bir narsani ikkinchi narsaga o'xshashligini bildiradi. Bunday izofali birikma **اضافه تشبیهی** **ezofe-ye tashbihi** deyiladi. Masalan:

لب غنچه	lab-e g'unche	g'uncha lab
قد سرو	qadd-e sarv	sarv qad

5. Aniqlovchi asliy yoki nisbiy sifatlar bilan ifodalansa, izofali birikma narsaning qandayligini bildiradi. Bunday birikma **ترکیب نسبی وصفی** **tarkib-e nesbi-ye vasfi** deyiladi. Masalan:

دیوار بلند	divor-e bo'land	baland devor
روزنامه ادبی	ruznome-ye adabi	adabiy gazeta

6. Agar aniqlovchi tartib son bilan ifodalangan bo'lsa, izofali birikma tartib, daraja ma'nolarini bildiradi. Bunday izofali birikma fors tilida

ترکیب عددی **tarkib-e adadi** deyiladi. Masalan:

کلاس چهارم	kelos-e chahoro'm	to'rtinchi sinf
جلد پنجم	jeld-e panjo'm	bashinchi jild

114 – mashq. Quyidagi birikmalarni yod oling.

روز تعطیل	ruz-e ta'til	dam olish kuni
مرحمت شما زیاد	marhamat-e sho'mo ziyod	iltifotingiz uchun rahmat
لطف شما زیاد	lo'tf-e sho'mo ziyod	iltifotingiz uchun tashakkur
از دیدن شما خیلی ممنونم	az didan-e sho'mo xeyli mamnunam	sizni ko'ridan nihoyatda xursandman
متشکرم	mo'tashakkeram	Rahmat
ببخشید	bebaxshid	Kechirasiz
عضو حزب فداکاران	o'zv-e xezb-e fedokoron	«Fidokorlar» partiyasi a'zosi

115-mashq. Gaplarni izofa qoidasiga rioya qilib o'qib, izofa imlosini aniqlang.

اسم شما چیست؟ اسم من جلال است. اسم خانوادگی شما چیست؟ اسم خانوادگی من رحمانوف است. خانه شما کجا واقع است. خانه ما در خیابان نوائی واقع است. خیابان نوائی کجا واقع است؟ خیابان نوائی در مرکز شهر واقع است. دلمراد کیست؟ دلمراد دوست من است. دلمراد کیست؟ او دانشجو است. دلمراد دانشجوی کدام دانشکده است؟ او دانشجوی دانشکده فیلولوژی است. برادر بزرگ شما

دانشجوی کدام دانشکده است؟ برادر بزرگ من دانشجوی دانشکده فیلولوژی است. من دانشجوی دانشکده روزنامه نگاری بین المللی هستم.

116 – mashq. Quyidagi birikmalarni izofa imlosiga rioya qilgan holda arab-fors alifbosida yozing.

Doneshkade-ye ruznomenegori, doneshgoh-e zabon-e xoreji, ketob-e man, doneshju-ye doneshkade, navisande-ye mashhur, dars-e panjo'm, dars-e zabon-e englisi, hamse-ye navoi, doneshkade-ye tebb, do'ste man, torix-e o'zbakeston, medod-e seyoh, esm-e xohar-e man, doneshyor-e mo, emorat-e bo'land, ketob-e xub, boo'-e esterohat, xiyobon-e sho'mo, meydon-e varzesh, divor-e sefid, sib-e so'rx.

117-mashq. Tubandagi izofali so'z birikmalarini o'qing, yozilishi va o'qilishini izohlang:

گل سرخ، سروگل، شجره ترك، شجره تراكمه، حسن جمال، دیوانه مشرب،

ترانه شرق، قامت زیبا، باغ بلند

118-mashq. Tubandagi so'z biiikmalari asosida gap tuzing. Fors yozuviga aylantiring: no'qte-ye nazar, labe xandon, ofate jon, tarjo'me-ye holi, sarve ravon, qomate zibo, sarve qad, g'amze-ye jonon.

YIGIRMA TO'RTINCHI DARS

درس بیست و چهارم

Fors yozuvida raqamlarning ifodalanishi

Raqamlar (arab. رقم – son, nomer)—sonlar ifodalanadigan shartli belgilar. Eng qadimda sonlar so'zlar orqali ifodalangan. Xalqlarning ijtimoiy-xo'jalik hayoti rivojlanishi bilan mukammalroq belgilarga va hisoblash sistemalarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

Arab raqamlari – o'nta matematik belgi: ۰-0 ۱-1 ۲-2 ۳-3 ۴-4 ۵-5 ۶-6 ۷-7 ۸-8 ۹-9 Bu raqamlar bilan istalgan katta yoki kichik sonni yozish mumkin. Yozuvda sonlar so'zlar va raqamlar bilan ifoda etilishi mumkin. Harflar bilan yozilgan sonlar o'ngdan chapga qarab yozib boriladi va o'qiladi.

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa sonlar chapdan o'ngga qarab yoziladi va o'qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko'pliklarni va oxirida birliklarni keltirish bilan ifoda qilinadi. Masalan:

1991 tarzidagi raqamlar xuddi shunday, ya'ni ۱۹۹۱ tarzida yoziladi.

1 dan 10 gacha bo'lgan miqdor sonlar

۰	سفر	sefr	nol	۵	پنج	panj	besht
۱	يك	yek	bir	۶	شش	shesh	olti
۲	دو	do'	ikki	۷	هفت	haft	yetti
۳	سه	se	uch	۸	هشت	hasht	sakkiz
۴	چهار	chahor	to'rt	۹	نه	no'h	to'qqiz
				۱۰	ده	dah	o'n

11 dan 20 gacha bo'lgan miqdor sonlar

Fors tilidagi 11 dan 20 gacha bo'lgan miqdor sonlarning yasallishiga ahamiyat beradigan bo'lsak, ushbu sonlardagi o'nliklar va birliklar o'zni almashgani, hamda, birlik shakldagi miqdor sonlar o'zining asliy nomlanishidan keskin farq qilishini ko'ramiz. Shu sababli fors tilidagi 11 dan 20 gacha bo'lgan miqdor sonlar o'zgarishga uchragan sonlar deb ataladi.

۱۱	يازده yozdah	o'n bir
۱۲	دوازده davozdah	o'n ikki
۱۳	سیزده sizdah	o'n uch
۱۴	چهارده chahordah	o'n to'rt
۱۵	پانزده ponzdah	o'n besh
۱۶	شانزده shonzdah	o'n olti
۱۷	هفده hefdah	o'n etti
۱۸	هجده hejdah	o'n sakkiz
۱۹	نوزده nuzdah	o'n to'qqiz
۲۰	بیست bist	Yigirma

O'NLIK SONLAR

۱۰	ده dah	o'n
۲۰	بیست bist	Yigirma
۳۰	سی si	o'ttiz
۴۰	چهل chehl	Qirq
۵۰	پنجاه penjoh	Ellik
۶۰	شصت shast	Oltmish
۷۰	هفتاد haftod	Etmish
۸۰	هشتاد hashtod	Sakson
۹۰	نود navad	to'qson
۱۰۰	صد sad	Yuz

YUZLIK SONLAR

۱۰۰	صد sad	yuz
۲۰۰	دویست devist	ikki yuz
۳۰۰	سیصد sisad	uch yuz
۴۰۰	چهارصد chahorsad	to'rt yuz
۵۰۰	پانصد ponsad	besh yuz
۶۰۰	ششصد sheshsad	olti yuz
۷۰۰	هفتصد haftsad	etti yuz
۸۰۰	هشتصد hashtsad	sakkiz yuz
۹۰۰	نه صد no'hsad	to'qqiz yuz

MINGLIK VA MILLIONLIK SONLAR

۱۰۰۰	هزار hezor	ming
۲۰۰۰	دو هزار do'hezor	ikki ming

۱۰۰۰۰	ده هزار dah hezor	o'n ming
۸۰۰۰۰	هشتاد هزار hashtod hezor	sakson ming
۱۰۰۰۰۰۰	یک میلیون yek melyun	million

Yigirmadan yuqori bo'lgan barcha miqdor sonlar (o'nliklar, yuzliklar, mingliklar va boshqa sonlar) bir-birlari bilan و va bog'lovchisi orqali bog'lanib, murakkab son hosil qiladi. Bog'lovchi talaffuzda o'z oldidagi songa qo'shilib, o' tarzida talaffuz qilinadi va yozuvda esa ajralgan holda yoziladi. Masalan:

چهل و چهار chehel-o' chahor qirq to'rt
سیصد و بیست و پنج Sisad-o' bist-o' panj uch yuz yigirma besh
چهار هزار و دویست و پنجاه و شش chahor hezor-o' devist-o' panjoh-o' shesh.
to'rt ming ikki yuz ellik olti

Fors tilida sonlar so'zlar bilan ifodalansa o'ngdan chapga tomon yoziladi va o'qiladi. Masalan:
پنج هزار و دویست و شصت و شش panj hezor-o' devist-o' shast-o' shesh besh
ming ikki yuz oltmish olti

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalanadigan bo'lsa, o'zbek tilidagidek chapdan o'nga qarab yoziladi va o'qiladi.

Masalan :

142 - ۱۴۲, 597- ۵۹۷, 10786- ۱۰۷۸۶, 2005648- ۲۰۰۵۶۴۸,
119-mashq. Quyidagi raqamlarni so'zlar bilan yozing.

۵, ۳, ۷, ۳۲, ۹۷, ۸۷, ۱۰۱, ۱۲۵, ۲۰۴۵, ۳۰۰, ۶۶۰, ۱۰۰۲, ۱۲۳۵, ۷۸۷۸,
۸۷۸۷, ۶۵۶۷, ۸۸۸۷, ۷۳۳۴, ۹۰۰۲, ۱۰۰۰۸,

120-mashq. Savollarga javob bering.

امروز چندم ماه است؟ آیا امروز پنجشنبه است؟ امروز هوا چطور است؟ یک سال
از چند فصل عبارت است؟ یک فصل از چند ماه عبارت است؟ یک ماه از چند
هفته عبارت است؟ یک ماه از چند روز عبارت است؟ یک هفته از چند روز
عبارت است؟ یک شبانه روز چند ساعت است؟ یک ساعت چند دقیقه است؟ یک
دقیق چند ثانیه است؟

121-mashq. Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Bir yil o'n ikki oydan iboratdir. Bir yil uch yuz oltmish besh yoki uch yuz oltmish olti kundir. Bir yil to'rt fasldan iboratdir. Bir oy to'rt haftadan iboratdir. Bir kecha kunduz yigirma to'rt soatdir. Bugun dam olish kuni. Ertaga nechanchi sana? Ertaga 9 mart. Eron mamlakatida dam olish kuni jumadir. 1 sentabr O'zbekistonning "Mustaqillik" kunidir.

122-mashq. Mazkur raqamlarni forsha shakliga keltiring:

3,11, 21, 160, 345, 789, 246, 4075, 3263, 4789, 5672, 3627, 2155, 52524,

O'qish va yozish uchun matnlar, hikmatli so'zlar, maqollar

حکایت

روزی پادشاهی با شاهزاده به شکار رفت. چون هوا گرم شد پادشاه و شاهزاده قبابی خود را کردند و روی دوش مسخره نهادند. پادشاه گفت: ای مسخره بار یک خر روی دوش توست. مسخره جواب داد: بار دو خر است.

حکایت

روزی شاعر فقیری پیش آدم متمولی رفت و چنین نزدیک او نشست که میان آنها یک وجب تفاوت بود. متمول از این خشمگین شد و از شاعر پرسید که میان تو و خر چه تفاوت است؟ شاعر جواب داد: یک وجب. متمول از این جواب خجل شد و از شاعر عذر خواست.

حکایت

روزی پادشاه ظالمی تنها از شهر بیرون رفت. شخصی را دید. از او پرسید: پادشاه این ملک ظالم است یا عادل؟ گفت: بسیار ظالم است. پادشاه گفت: مرا میشناسی؟ گفت: نخیر، نمیشناسم. گفت: من پادشاه این ملک هستم. آن شخص ترسید و پرسید: میدانی من کیستم؟ پادشاه گفت: نخیر، نمیدانم. گفت: من پسر فلان تاجرم و هر ماه سه روز دیوانه میشوم. امروز یکی از آن سه روز است. پادشاه خندید و چیزی به او نگفت.

حکایت

شخصی طوطی را تربیت کرد و زبان فارسی را به او یاد داد. طوطی در جواب هر سخن میگفت: در این شک نیست. روزی آن مرد طوطی را برای فروش به بازار برد و صد تومان قیمت گذاشت. کسی از طوطی پرسید: مگر صد تومان می ارزی؟ گفت: در این شک نیست. آن شخص خوشحال شد و طوطی را خرید و به خانه خود برد. هر چه به طوطی گفت جواب دیگری نشنید جز همین: در این شک نیست. آخر خریدار خشمگین شد و گفت: خر بودم که تو را خریدم. طوطی گفت: در این شک نیست. خریدار خندید و طوطی را آزاد کرد.

بینائی و شنوائی

یکی گفت: چشم من بقدری بینائی و سو دارد که از چند قدمی چیزهای بسیار کوچک را میبینم. مثلاً الان در روی گنبد این مسجد مگسی را که راه میرود میبینم. دیگری گفت: چشم من اینقدر قوت ندارد اما گوشم به درجه ای شنوائی دارد که صدای پای آن مگس را میشنوم.

نابینا

نابینائی زن گرفت. زنش به او گفت: افسوس که چشم نداری تا ببینی من چه قدر خوشگل و سفیدم. نابینا گفت: خاطر جمع باش، اگر این قدر خوشگل و سفید بودی چشمداران تا کنون تو را گرفته و برای من باقی نمیگذاشتند.

لطیفه

روزی مردم از ملا نصر الدین پرسیدند: آقای ملا نصر الدین ما را ببخشید،

شما چند سال دارید؟ ملا جواب داد: چهل سال دارم. بعد از ده سال پرسیدند که چند سال دارید؟ ملا این بار هم جواب داد: چهل سال. مردمان تعجب کردند و به ملا نصرالدین گفتند: شما ده سال قبل گفتید چهل سال دارم، حالا هم میگوئید چهل سال. ملا گفت: حرف مرد یکیست. اگر هزار سال بعد هم بپرسید چهل سال خواهم گفت.

ماکیان و تخم طلا

ماکیانی در خانه صاحبش تخم طلائی گذاشت. صاحب او چون تخم طلا را دید پنداشت که شکم ماکیان پر از طلا است. با این امید سر ماکیان را برید که تمام طلا را یک مرتبه از شکم ماکیان بیرون نماید. همینکه ماکیان را کشت و شکمش را پاره کرد دید چیزی نیست. پشیمان شد ولی این پشیمانی و تأسف سودی نبخشید. پند بزرگان: کیسه پر طمع همیشه خالی است.

عاقبت دروغگوئی

چوپان جوانی بسیار دروغ میگفت و همیشه بدروغ فریاد میکرد که به من کمک کنید و گوسفندانم را از چنگال گرگ رها کنید. مردم از اطراف با چوب و تفنگ به کمک او میرفتند و چون نزدیک میرسیدند میدیدند که چوپان دروغ گفته است. سپس مردم رنجیده پی کارهای خود میرفتند. اتفاقاً شبی گرگی چند به گوسفندان او حمله کردند. بیچاره چوپان هر چه داد میزد و مردم را بکمک میخواند هیچ کس بدادش نمیرسید، زیرا آنها خیال میکردند که چوپان باز دروغ میگوید. در نتیجه گرگها چندین رأس از گوسفندان او را دریدند و خودش را هم هلاک کردند.

ازبکستان کشور ماست.

جمهوری ازبکستان کشور ما است. جمهوری ازبکستان یکی از جمهوری های بزرگ آسیای میانه است. جمهوری ازبکستان در مرکز آسیای مرکزی واقع است. در آسیای مرکزی غیر از ازبکستان جمهوری های قازاقستان، قرغزستان، تاجکستان، ترکمنستان، افغانستان واقع است و همه آنها همسایه های جمهوری ما است. در جمهوری ازبکستان روستاها و شهرها خیلی زیاد است. تاشکند، سمرقند، بخارا، خیوه و قوقان شهرهای بزرگ جمهوری ازبکستان است. رود های آمودریا و سیردریا و دریای آرال در شمال جمهوری ازبکستان واقع است. آب و هوای جمهوری ازبکستان گرم و خشک است. مردم جمهوری ازبکستان خیلی زحمتکش و مهماندوست هستند. کارگران و دهقانان جمهوری ما با کارهای گوناگون مشغولند. عمده ترین محصولات کشاورزی جمهوری ما پنبه است. همه ثروتهای کشور برای مردم است.

شهر تاشکند

شهر تاشکند پایتخت جمهوری ازبکستان است. این شهر در شمال شرق کشور واقع است. تاشکند شهر خیلی بزرگ و زیبا است. شهر تاشکند از یازده ناحیه عبارت است. جمعیت شهر تاشکند در حدود دو میلیون نفر است. شهر تاشکند مرکز سیاسی، اقتصادی، اداری و فرهنگی جمهوری

ازبکستان است. در تاشکند بناهای جدید و مدرن، خیابانهای وسیع و زیبا بسیار است. مثلاً بازارهای نو، کاخ‌ها، موزه‌ها، هتل‌ها، و غیره از این جمله است. متروی شهر تاشکند خیلی زیبا و بزرگ است. ایستگاه‌های مترو خیلی قشنگ است. در شهر تاشکند کارخانه‌ها، آموزشگاه‌های عالی و متوسطه، فرهنگستان علوم ازبکستان، دانشگاه‌های دولتی، دبیرستانها، نشریاتهای گوناگون، تاترها، سینماها و پارک‌ها زیاد است. یکی از خیابانهای قشنگ تاشکند خیابان نوائی است. اداره‌های نشریات، ورزشگاه پخته‌کار، کاخ هنر و سایر بنگاه‌های علمی و فنی در این خیابان واقع است. مرکز شهر تاشکند میدان امیر تیمور دارد. در وسط میدان مجسمه امیر تیمور هست. در آنجا درختان بلند و پرسایه هست. در این میدان یکی از ایستگاه‌های مترو هم واقع است. در اطراف میدان امیر تیمور ساعت برج تاشکند، بناهای شهرداری، خبرگذاری ملی ازبکستان، اداره‌های بانکها، موزه تاریخ دوران تیموریان، دانشگاه حقوق و چند رستوران و کافه واقع است.

ایران

کشور جمهوری اسلامی ایران در جنوب غربی آسیا واقع است. کشور ایران با کشورهای در جنوب ترکیه، عراق، پاکستان، افغانستان و آذربایجان هم مرز است. جمعیت کشور ایران بیش از هفتاد و پنج میلیون نفر است. پایتخت کشور ایران شهر تهران است. در شمال ایران دریای خزر آن دریای عمان و خلیج فارس قرار دارد. زبان رسمی مردم ایران زبان فارسی است. اهالی شهر تهران در حدود دوازده میلیون نفر می‌باشد. تهران مرکز اداره‌ی سیاسی، اقتصادی و فرهنگی کشور است. شهرهای مشهد، کرمان، بندر، عباس تهران، شیراز، اصفهان، یزد، همدان، تبریز از شهرهای بزرگ ایران محسوب می‌شوند. واحد پول ایران ریال است. در ایران گندم، جو، برنج، چای، پسته، بادام، خرما، چغندر قند، پنبه و میوه‌ها و سبزیجات مختلف کشت و پرورش می‌یابد. عمده‌ترین محصولات کشاورزی ایران گندم و برنج است. مهمترین ثروت ملی ایران نفت است. ایران در تولید نفت مقام چهارم را در جهان دارا است.

فصلها و روزها

یک سال از چند فصل عبارت است؟ یک سال از چهار فصل عبارت است. نام فصلها از این قرار است: بهار، تابستان، پائیز و زمستان. یک فصل چند ماه است؟ یک فصل سه ماه است. یک سال چند ماه است؟ یک سال دوازده ماه است. ماه‌های ایرانی کدامند؟ فروردین، اردیبهشت، خرداد، تیر، مرداد، شهریور، مهر، آبان، آذر، دی، بهمن، اسفند ماه‌های ایرانی است. ماه‌های فصل بهار فروردین، اردیبهشت و خرداد است. ماه‌های فصل تابستان تیر، مرداد و شهریور است. ماه‌های فصل پائیز، آبان و آذر است. ماه‌های فصل زمستان دی، بهمن و اسفند است. اول ماه فروردین مطابق با بیست و دوم و یا بیست و یکم مارس ماست. در ایران غیر از ماه‌های مذکور ایرانی ماه‌های اروپائی هم معمول است؟ بلی، غیر از ماه‌های ایرانی ماه‌های اروپائی هم نیز معمول است. ماه‌های اروپائی چنین است: ژانویه، فوریه، مارس، آوریل، مه، ژوئن، ژوئیه، اوت، سپتامبر، اکتبر، نوامبر و دسامبر. یک هفته هفت روز است. روزهای هفته چنینند: دوشنبه، سه‌شنبه، چهارشنبه، پنجشنبه، جمعه (آدینه)، شنبه و یکشنبه. یک ماه چند هفته است؟ یک ماه چهار هفته است. یک هفته چند روز است؟ یک هفته هفت روز است. در ایران روز تعطیل کدام روز است؟ در ایران روز تعطیل روز جمعه است. در ازبکستان روز تعطیل کدام روز است؟ در ازبکستان روز تعطیل روز یکشنبه است. امروز چندم ماه است؟ امروز بیست و هفتم آوریل است. امروز چه روزی است؟ امروز روز یکشنبه است.

خانواده ما

خانواده ما از هشت نفر عبارت است. من، پدر بزرگ و مادر بزرگ، پدر و مادر، دو برادر بزرگ و دو خواهر کوچک دارم. پدر بزرگ و مادر بزرگم بازنشسته هستند. پدر من دانشیار

دانشگاه اقتصادی جهانی است. مادرم دانشیار است و در یکی از دانشگاه های شهر تاشکند تدریس میکند. یکی از برادران بزرگم پزشک است و در یکی از بیمارستانهای شهر قوقان کار میکند. او با زن و پسر پنج ساله خود در شهر قوقان زندگی میکند. برادر دیگرم در دانشکده تاریخ فرهنگستان علوم ازبکستان کار میکند. او هنوز جوان است و زن ندارد. خواهر بزرگم بیست سال دارد. او دانشجوی سال دوم دانشگاه دیپلوماسی (سیاسی) ازبکستان است. خواهر کوچکم دوازده سال دارد. او دانش آموز است و در دبیرستان تحصیل میکند. من دانشجوی سال سوم دانشکده زبان و ادبیات ازبکی دانشگاه تعلیم و تربیتی معلمین دولتی تاشکند به نام نظامی هستم. من هجده سال دارم. پسر برادر بزرگم سه سال است و او به کودکستان میرود. منزل ما در خیابان بابور واقع است. ما پنج اتاق داریم. یک اتاق مال من است. اتاق من کوچک ولی خیلی روشن است و یک پنجره بزرگ دارد. اتاقم میز تحریر، ساعت دیواری، قفسه کتاب، تختخواب و دو صندلی دارد. در طرف راست دیوار اتاقم عکس مادرم و طرف چپ نقشه های جمهوری ازبکستان و ایران آویزان است. در قفسه کتاب من کتابهای فارسی، عربی، هندی، فرانسوی، انگلیسی، روسی و ازبکی وجود دارد.

من چند نفر رفیق و دوست دارم. آنها روزهای تعطیل پیش من می آیند و ما با هم به سینما یا برای تماشای مسابقه های فوتبال به ورزشگاه میرویم. پشت خانه ما باغ بابور است که درختان پرسایه دارد. روزهای تابستان هنگامیکه هوا گرم میشود اغلب ما در این باغ زیر درختها استراحت میکنیم. در شهر تاشکند قوم و خویش هم داریم. آنها بکارهای گوناگون مشغولند. بعضی روزها آنها به خانه ما می آیند یا ما را به مهمانی به خانه خود دعوت میکنند. ما در تابستان روزهای تعطیل بیرون شهر میرویم و ما تمام روز را در آنجا به گردش و هواخوری میگذرانیم.

پند و امثال، ضرب المثل ها .

داشتم داشتم حساب نیست، دارم دارم حساب است.
 دیوار موش دارد، موش گوش دارد.
 صبر تلخ است ولیکن بر شیرین دارد.
 سیر از حال گرسنه خبر ندارد.
 آب آبادانی است..
 دانائی توانائی است.
 همدلی از هم زبانی بهتر است.
 آب خوش بپوششنگی ناخوش بود.

آهسته رو همیشه رو.
 اول بچش بعد بگو بی نمک است.
 بد مکن که بد افتی، چاه مکن که خود افتی.

کار امروز را به فردا مگذار.
 آنجا که نمک خوردی نمکدان مشکن.
 با یک گل بهار نمیشود.

هنر از دانش و دانش از خوانش.
 پرسان پرسان به کعبه بتوان رفتن.
 جوینده عاقبت یابنده است.
 دانا داند و پرسد نادان نداند و نپرسد.

دانائی توانائی است.
توانا بود هر که دانا بود ز دانش دل پیر برنا بود.
تا ندانی که کیست همسایه به عمارت تلف مکن مایه.

بهترین آشنائی آشنائی دلهاست.
سرکه مفت از عسل شیرینتر است.

تا صلح توان کرد در جنگ مکوب

عبر از غوره حلوا میتوان ساخت.
ایک دست دو هندوانه نمیشود برداشت.
ش را با آتش نتوان کشت.
نهال تر است باید راست کرد.

خری که جو دید کاه نمیخورد.
تیری که از کمان جست بر نگردهد.
کسی که از گرگ بترسد گوسفند نگاه ندارد.
چاهی که آب ندارد با آب ریختن آبدار نشود.
اگر دیده نبیند دل نخواهد.
اگر نباشد چیز کی مردم نگوید چیزها.

دروغ آدمی را کند شرمسار
دروغگو خود را رسوا کند

میکوش به هر ورق که خوانی
تا معنی آن تمام دانی. (نظامی)

در کلاس زبان فارسی

امروز هنگام تنفس من و احمد در باره گردش فردا صحبت کردیم. احمد مرا دعوت کرد: بیا فردا با هم به گردش برویم. من از او پرسیدم: کجا برویم؟ او به من گفت: اول به تاتر برویم و بعد از ظهر برای گردش به پارک برویم. من از او پرسیدم: در پارک چه بکنیم؟ احمد جواب داد: تو میدانی که در پارک سالن شطرنج هست آنجا برویم و با هم شطرنج بازی کنیم. دعوت او را پذیرفتم. در این وقت زنگ زدند و ما به کلاس رفتیم. درس زبان فارسی بود. دانشیار زبان فارسی آمد و درس را آغاز کرد. اول مرا به پای تخته خواست. من رفتم و کهنه را برداشتم. از دانشیار پرسیدم: تخته را پاک کنم؟ دانشیار جواب داد: بله، بفرمائید تخته را پاک کنید. من تخته را پاک کردم. دانشیار جمله فارسی خواند و گفت: خواهش میکنم این جمله را روی تخته بنویسید. من گفتم: گچ نیست با چه بنویسم؟ در این وقت احمد از دانشیار پرسید: گچ بیاورم؟ دانشیار گفت: بله، بفرمائید گچ بیاورید. احمد گچ آورد و دانشیار چند جمله فارسی خواند و من این جمله ها را روی تخته نوشتم. یکی از دانشجویان پرسید: ما هم این جمله ها را بنویسیم؟ دانشیار گفت: وقتی که او روی تخته مینویسد شما هم به دفتر تمرین خود بنویسید. احمد گفت: با مداد بنویسیم و یا با قلم؟ دانشیار زبان فارسی مان به او گفت: با مداد بنویسید، با قلم بنویسید. دانشیار چند جمله دیگر هم گفت و ما این جمله ها را نوشتیم. من دو کلمه را درست ننوشتم و دانشیار اصلاح کرد. من پرسیدم: این کلمات را دو باره بنویسم؟

دانشیار جواب داد: بلی، این کلمات را دو باره بنویسید و خوب یاد بگیرید. بعد از من دانشیار احمد را پای تخته خواست. او هم چند جمله فارسی نوشت. احمد هم مانند من دو یا سه کلمه را درست ننوشت. دانشیار اشتباهات او را اصلاح کرد. بعد از اصلاحات دانشیار احمد این کلمات را چند بار تکرار کرد. رویهمرفته دانشجویان کلاس ما درس زبان فارسی را خوب میدانستند و دانشیار از ما راضی بود.

چهارسو

من در شهر تاشکند زندگی میکنم. شهر تاشکند در ازبکستان واقع است. شهر تاشکند مرکز سیاسی، اقتصادی، اداری و فرهنگی جمهوری ازبکستان است. سالهای آخر شهر تاشکند خیلی زیباتر میشود. طی پنج سال آخر در تاشکند بناهای جدید و مدرن، خیابانهای وسیع و زیبا بسیار ساخته شد و ساخته میشود. یکی از آنها مجموعه تجارتي چهارسو است. دیروز من با پدرم برای خرید چیزهای لازم به مجموعه تجارتي چهارسو رفتیم. این مغازه خیلی بزرگ است و چند طبقه دارد. هر اشکوبه آن چندین شعبه دارد. در این شعبه ها کالاهای گوناگون، لباسها، قالی ها، ظروف آشپزخانه و بدل چینی، پیراهن گوناگون، کفشهای مردانه، کفشهای زنانه، کفشهای بچگانه و غیره میفروشند. چون ما وارد مغازه شدیم پدرم به من گفت: میخواهم برای تو کفش، برای خواهرت دستکش و شال گردن، برای مادرش ساعت طلائی و برای خودم دو پیراهن و یک کراوات بخرم. ما اول مغازه را تماشا کردیم و از کالاهای آن دیدن نمودیم. در مغازه مشتریان زیاد بودند و هر یکی از آنها مشغول خرید چیزی بود. در طبقه اول پدرم دو پیراهن برای خود انتخاب کرد و خرید. در شعبه دیگر این طبقه برای پدرم یک کراوات راه راه و برای مادرم دو دستمال خریدیم. بعد از آن به طبقه دوم رفتیم. طبقه دوم هم خیلی بزرگ و چندین شعبه داشت: یکی شعبه کفشهای مردانه، دیگری شعبه کفشهای زنانه، سومی شعبه کفشهای بچگانه بود. من با پدرم به شعبه کفشهای مردانه رفتیم. پدرم به فروشنده این شعبه گفت: بفرمائید، لطفاً یک جفت کفش سیاه رنگ به ما نشان بدهید. فروشنده فوراً برای من یک جفت کفش آورد و من آنرا پوشیدم. این کفش برای پای من قدری تنگ بود. به این سبب از فروشنده خواهم کردیم که کفش دیگری به ما نشان بدهد. کفش دوم اندازه پای من بود. از آن کفش خوشم آمد و آن را خریدیم. سپس برای خریدن ساعت طلائی به طبقه سوم بالا رفتیم. طبقه سوم هم چندین شعبه دارد. ما در این طبقه برای مادرم یک ساعت طلائی خریدیم و شعبه های دیگر این طبقه را تماشا کردیم. بعد از آن به طبقه چهارم بالا رفتیم. در طبقه چهارم شعبه هدایا هست. ما از آنجا برای خواهرم دستکش چرمی و شال گردن ابریشمی خریدیم. بعد از خریدن چیزهای لازم پائین آمديم و از مغازه بیرون رفتیم و بمنزل برگشتیم. مادرم و خواهرم از خرید ما خیلی خوششان آمد.

محصولات ایران

ایران کشوری است زراعتی و در بیشتر نقاط آن انواع غله و میوه به عمل میآید. محصولات مهم ایران گندم و جو و برنج و پنبه و ذرت و ارزن و سیب زمینی و چای و حنا و □ پسته و بادام و خرما و اقسام میوه است گندم و جو در تمام نقاط ایران کاشته میشود و در خاک خراسان بهتر و بیشتر از جاهای دیگر حاصل می‌دهد. برنج را در پنبه □ پنبه در نقاط گرمسیر و معتدل بعمل می‌آید □ گرگان و مازندران و گیلان می‌کارند. ایران را بخارج می‌برند و قسمتی در درون کشور بمصرف می‌رسد. زراعت چای بتازگی در ایران معمول شده و محل کشت آن گیلان و لاهیجان است. درخت خرما در جنوب ایران بسیا رکاشته می‌شود □ پسته در ایران خوب حاصل می‌دهد و هر سال مقداری از آنرا بخارج ایران حمل می‌کنند □

- 1.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011.
- 2.Каримов И.А. Юксак маъnavият – енгилмас куч. –Т.: Маъnavият, 2008.
3. Абдусаматов М. Форс тили, -Т.: “Шарқ”, 2007.
- 4.Абдусаматов М. Сиз форсча сўзлашасизми? -Т.: “Ўқитувчи”, 1971.
- 5.Ядуллоҳ Самара.. Форс тили дарслиги (Озфо). Биринчи китоб. Бошланғич курс. (таржимон Аҳмаджон Қуронбеков). – Эрон– Техрон: 1999.
- 6.Абдусаматов М. Ўзбекча-русча-форсча сўзлашгич. –Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти. 1992.
- 7.Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008.
- 8.Қуронбеков А., Воҳидов А., Зияева Т., Форс тили – Тошкент: Муסיқа, 2006.
- 9.Халилов Л. Форс тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
- 10.Талабов Э. Араб тили. –Т.: "Ўқитувчи", 1993.
- 11.Arab(fors) tili. O‘UM, O‘zMU. 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.
- 12.Усмон Сулаймони. Алифбои забони форси, -Д., 1990.

Lug‘atlar

- 1.Рустамов А. Каримов Х. Умаров З. Форсча ўзбекча ўқув луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
- 2.Рустамов А. КаримовХ. Умаров З. Форсча ўзбекча ўқув луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
- 3.Рубинчик Ю. А. Персидско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1985.
- 4.Восканян Г. А. Русско-персидский словарь. – Москва: Русский язык, 1986.

MUNDARIJA

Kirish.....	5
Fors alifbosi.....	4
Birinchi dars	7
Ikkinchi dars.....	8
Uchinchi dars.....	10
To'rtinchi dars.....	12
Beshinchi dars	13
Oltinchi dars	15
Yettinchi dars	17
Sakkizinchi dars	18
To'qqizinchi dars	19
O'ninchi dars.....	21
O'n birinchi dars	22
O'n ikkinchi dars	24
O'n uchinchi dars.....	26
O'n to'rtinchi dars	27
O'n beshinchi dars	30
O'n oltinchi dars	31
O'n yettinchi dars.....	32
O'n sakkizinchi dars	34
O'n to'qqizinchi dars.....	35
Yigirmanchi dars.....	36
Yigirma birinchi dars	38
Yigirma ikkinchi dars.....	41
Yigirma uchinchi dars	42
Yigirma to'rtinchi dars	43
Yozuv mashqi uchun matnlar.....	45
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

نورسون علی جمعیوف
فرهاد قیاموف

زبان فارسی

فرشی - ۲۰۱۷